




"Solihbek dodxoh – millat qahramoni" kitobining "Qal'adorlik va surgun" faslida shahar mudofaasini tashkil etishda Solihbek dodxoh boshliq aholining barcha qatlamlari safarbar qilingani, yuzlab harbiy inshootlar qurilgani, shuningdek, har bir daha kishilarining vazifasi aniq belgilanganligi xususida so'z boradi..."



(4-sahifada o'qing) ➤

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI NORASMIY SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Siz, azizlar bilan asrlar davomida Sharq va G'arb o'tasida mustahkam ko'priq bo'lib kelayotgan go'zal Budapesht shahrida uchrashib turganimizdan behad munnunman.

Bugungi yig'ilishimizga yuksak daraja mezonlik qilayotgan hurmatli Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban Janobi Oliylari sha'niga aytigan minnatdorlik so'zlari qo'shilaman.

Tashkilotimizda muvaffaqiyatlari raislik qilayotgan hurmatli Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Nurojovich Japarov Janobi Oliylariga yangi yutuqlar tilayman.

Muharam hamkasblar!

Bugungi sammitimiz shiddat bilan o'zgarayotgan global vaziyat va oldindan aytib bo'lmaydigan murakkab jarayonlar sharoitida o'tmoqda. Geosiyosiy va geoqitsodiy ziddiyatlar, mintaqaviy nizolar va iqlim o'zgarishi oqibatlarining kuchayishi barchamiz uchun katta sinov bo'lmoqda.

Shu sababli dolzarb muammolar yechimi bo'yicha davlatlarimizning umumi yondashuv va pozitsiyalarini kuchaytirish har qachongidan ham muhimdir.

Ta'kidlash loizmik, biz eng og'riqli muammolarga xalqaro huquq me'yorlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi asosida yechim topish zarur, deb hisoblaymiz.

Ukraina atrofidagi vaziyatni diplomatiya va muzokalar yo'lli bilan hal etishga qaratilgan amaliy sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlamiz. Hurmatli Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan Janobi Oliylarining bu boradagi munosib hissasini alohida e'tirof etmoqchiman.

G'azoda sulh bitimining buzilishi va harakatlarning qaytdan boshlanishi barchamizni chuqur tashvishga ilgari suramiz.

Transkaspik xalqaro yo'lagi orqali solmoqda. Toki "ikki xalq uchun – ikki davlat" tamoyili ro'yobga chiqmas ekan, Falastin – Isroi nizosining adolatli yechimini topish mumkin emas.

Global va mintaqaviy xavfsizlik haqida so'z yuritar ekanmiz, Afg'onistonidagi murakkab vaziyati inobatga olishimiz va unga birlgilash yechim topishimiz lozim. Afg'oniston bo'yicha qo'shma bayonet qabul qilinayotgani tuzilmamizning bu masalaga jiddiy e'tibor qaratib kelayotganidan dalolat beradi.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilar!

Biz qisqa vaqt mobaynida Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida amaliy hamkorlik bo'yicha samarali natijalarga erishmoqdamiz. Yaqinda iqtisodiy tahlil markazlarimizning Toshkentda bo'lib o'tgan anjumanida aloqalarimizni kengaytirish uchun ulkan salohiyat borligi yana bir bor o'z tasdig'i topdi.

Kun tartibidan kelib chiqib, o'z takliflarni bildirmoqchiman.

Xabarlingiz bor, o'tgan yili Turkiy davlatlar o'tasida strategik sherlik, abadiy do'stlik hamda qardoshlik to'g'risidagi bitimni ishlab chiqish taklifini ilgari suragan edik.

Bugungi kunda ushu hujyatning ahamiyati va dolzarbliyanan ortib bo'moqda. Hech shubhasiz, mazkur bitim xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish va ko'p qirrali hamkorligimizning usoq muddati huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu hujyatni Boku sammitida imzolashni taklif qilaman.

Oldimizda aniq vazifa turbidi – yaqin yillarda o'zaro savdo ulushini keskin ko'paytirish loizim. Shu maqsadda "Turk-treyd" onlays platformasini yaratish va Savdoni oshirish amaliy dasturini qabul qilish tashabbuslarini ilgari suramiz.

Transkaspik xalqaro yo'lagi orqali

yuk tashish hajmini oshirish va bojxonacha chegara taribiliini soddalashtirish uchun "yagona darcha" hamda "yashil koridorlar" tizimlarini tezroq yo'lg'a qo'yishga chaqiraman. Ushbu yo'nashidagi hamkorlikni kengaytirish maqsadini noyabr oyida Toshkentda Turkiy davlatlarning Xalqaro multimodal transport va logistika forumini o'tkazishni rejalashtirganimiz.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, Turkiy investitsiya jamg'armasining faoliyati sarmoyalari oqimining faollashuviga turki berishi shubhaisiz. Biz innovation loyihalarni rag'batlantrish uchun Qo'shma venchur kompaniyasini tashkil etish zarur, deb hisoblaymiz. Bu borada mamlakatlarimizning investitsiya imkoniyatlarini to'liq aks ettirgan "Yagona investitsiya portalini" ni joriy etish maqsadga muvoqidir.

Yana bir masala. Sanoat kooperatsiyasi sohasida amaliy hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish vaqt keldi. Bu borada kimyo, energetika, tog'-kon, yengil sanoat, farmasevtika, charm-poyabzal, oziq-ovqat va qurilish sohalarida salmoqli ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bo'yicha Sanoat kooperatsiyasi dasturini ishlab chiqishni taklif etaman.

Yaqinda Samarcand shahrida o'tkazilgan Xalqaro iqlim forumida "yashil" taraqiyot sohasidagi mintaqaviy va global hamkorlikni mustahkamash bo'yicha muhim takliflar bildirildi.

Hurmatli Viktor Orban Janobi Oliylarining tashabbusi bilan Budapeshtda Tashkilotimizning Qurg'oqchilarning oldini olish instituti o'z ishini boshlaganini ham munnuniyat bilan e'tirof etamiz.

(Davomi 2-sahifada)



HERMAN VAMBERI va

IKKI O'ZBEK SHOIRI

Dunyoga mashhur mojar sayyohi Herman Vamberi o'z asarlarida Turkistonning tarixi, geografik muhit, madaniyati, san'ati, tili va adabiyyoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bevosita o'zi tanishib suhbatlashgan ayrim tarixiy shaxs va adiblarni eslab o'tadi. Biroq Herman Vamberining Markaziyo Osyo xalqlari madaniyati va adabiyyoti, o'zbek adiblari ijodiga oid qarashlari bugunga qadar adabiyyotshunoslikda tugal tasavvur beradigan holda atroficha o'rganilgan yo'q. Holbuki, olimning "turkiyabon xalqlarning mashhur va yetakchi shoiri" Alisher Navoiy, "Boburnoma"dek betakror memuar egasi Zahiriddin Muhammad Bobur va "Shayboniyona" sohibi Muhammad Solih kabi adabiyyot simeylari to'g'risidagi jiddiy fikrlari, xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz adabiyyoti bo'yicha tarjimalari, "Chig'atoy tilli saboqlari" kitobi tarkibida alohida "xrestomatiya"si va maxsus lug'ati bor.

Diqqatga loyiq yana bir tomoni shuki, 1892-yili Venada nashr qilingan "Yaqin Sharq xabarnomasi" jurnalining 6-sonida Herman Vamberining o'zbek adiblari haqida "Markaziyo Osyoning ikki zamonaviy shoiri – Munis va Amiry" nomli maqolasi bosiladi. Olim ikki shoirni tafsiflashdan oldin Alisher Navoiyni turkiy tilda ijod etgan eng iste'dodli adib sifatida

tilga oladi, uning zamonasidagi adabiyyot muhitiga to'xtaladi. Navoiyning ta'sirida bo'lgan forsyiv va turkiygo' shoirlarga Hiloiy bilan Ahliyarni misol qilib keltiradi. Aslida "poetic qobiliyat egalari, san'at va ilm-fan muhiblari Hirotdagi temuriylar saroyida ko'p" bo'lganini Vamberi yaxshi bilgan. Shu masalada "Boburnoma" dan quyidagi mashhur latifani keltiradi: "... Bir kun shatrani majlisida Alisherbek oyog'ini uzatir. Binoi (orqasi)ga tegar. Alisherbek mutoyiba bila derki, "ajab baloyest dar Hiriy agar moy daroz mekuni ba (pushti) shoir merasad" (Tarjimi: "Ajab bir balodirki, Hirotda oyog'ingni uzatsang, shoirning orqasiga tegadi"). Binoi derkim, "agar jam' mekuni ham ba (pushti) shoir merasad" (Tarjimi: "Yig'sang ham, shoirning orqasiga tegadi"). Asos-negizi haqiqatga yaqin ushu hazilni Bobur memuarining 226-sahifasidan oladi. Bu dalil "Boburnoma" dan bir nusxa Vamberi qo'lida borligini ham bildiradi.

Herman Vamberi Alisher Navoiydan keyingi adabiyyotini tahsil etib, forsyizabon shoirlar Abdurahmon Jomiyod ta'sirlanganiga, Muhammad Solih esa "Shayboniyona"ni turkiy tilda yozganiga urg'u beradi. Vamberi: "Bizga Navoiy va Muhammad Solihning vafotidan boshlab to yangi davrgacha keng qamrovli va juda muhim ahamiyat kasb etgan hech qanaqa chig'atoycha (o'zbekcha) adabiyyas aras ma'lum emas", deb yozadi...

(Davomi 7-sahifada) ➤

TURIZM

TARIX CHARXPALAGIDA BIR BUTUN MAKON



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Arda Xiva" xalqaro turizm markazining ochilish marosimida so'zlagan tantanali nutqida ta'kidlanganidek: "Amudaryoning ikki sohilida joylashgan Xorazm va Qoraqalpog'iston elini Xudoji tacloning o'zi taqdirdosh qilib yaratgan. Bu ikki qo'shni hududning tarixi, madaniyati va urfatotlarini bir-biridan alohida tasavvur qilib bo'lmaydi". Bu asosiy yaqinlik uzoq tarixiy jarayon natijasida vujudga kelgan. Ushbu hududlar qadimgi Xorazm, Xorazmshohlar davlati, keyinchalik esa Xorazm xonligi tarkibida bo'lgan. Arxeologik topilmalar, lingvistik tadqiqotlar va etnografik ma'lumotlar xorazmliklar va qoraqalpoqlar o'ttasidagi tarixiy yaqinlikni, mustahkam aloqalarni, moddiy va ma'naviy madaniyatning ko'plab umumiyyat jihatlarini tasdiqlaydi.

(Davomi 3-sahifada) ➤

TAQDIMOT

QASRI KINODA NASR-U NAVO

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida barcha jabhalar qatori ilm-fan, ta'limgarbiya, madaniyat, san'at va adabiyyot, jumladan, kitob va kitobxonlik masalalariga yuksak e'tibor qaratilayotgani jamoatchiligidarga yaxshи

muhim hujjalarni ijrosini ta'minlash yuzasidan boshlangan katta ishlar, milliy dasturlar izchil davom ettirilmoqda.

Yoshlar orasida kitobxonlik rivojlantirish va targ'ib qilish vazifasi "O'zbekiston–2030" strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangani ham ushu masalaga qanchalik jiddiy e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

Ayni shu ezgu maqsadda mammakatimiz miqyosida "Yosh kitobxon", "Zukko kitobxon", "Yosh kitobxon"

oilа singari qiziqarli tanlovlар, "Yoshlar uchun ming kitob", "Ma'rifat ulashib", "Kitob karvon" aksiyalari, kitob bayramlari va yarmarkalarini tuzishda tashkil qilinmoqda.

Yaqinda Farg'ona viloyatida Xalqaro kitobxonlik festivali yuksak saviyada tashkil etilib, unda dunyoning 50 dan ortiq mammakatlaridan kitobsevarlar, taniqli shoir va yozuvchilar, ziyojlar ishtirot etgani yana bir muhim voqeа bo'ldi.

(Davomi 4-sahifada) ➤

ALLOMALARIMIZ




FIDOYILIK MEZONI

DAHBEDIYLAR

XVI asrda Samarqand yaqinidagi Dahbed qishlog'i bu yerga Namanganning Kosonidan kelib, o'rashgan Maxdum A'зам Kosoni – Dahbediy sharofatidan naqshbandiyaning yirik markaziga aylangan edi.

URGUTIYLAR

XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Dahbediy pirlarning muridi bo'lgan bir avlod sharofati bilan Urgut tariqatining muhim manzillaridan biri sifatida nom



qozondi. Urgutiy pirlar orasidan shunday bir sulola yetishib chiqdiki, bu oila a'zolari tariqatni otadan o'g'ilga otkaza borib, o'ziga xos bir zanjir hosil qildi. Zanjirning boshida Xoja Valixon Urgutiy turgan edi. Bu zot o'z davrida "qutb uz-zamon" deya yuksak nom bilan sharaflangan. Tariqatga rahnamolik qilish Eshoni Valixonning o'g'li Eshoni Muhiddinxonga o'tdi. Eshoni Muhiddinxon, ko'p muridlari qatori, o'g'li Eshon Qutbiddinxonni tarbiyaladi.

(Davomi 6-sahifada) ➤

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI NORASMIY SAMMITIDAGI NUTQI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Mazkur institut faoliyatiga ko'maklashish va maqsadli loyihalarga kengroq jalb etish uchun "Qurg'ochilik va ekologik muammolarning oldini olish bo'yicha qo'shma yo'l xaritasiga"ni ishlab chiqishni taklif etaman.

Shu o'rinda yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shangan, barchamizning faxr-iftixorimiz bo'lgan buyuk ajoddalarimiz merosini chuquq o'rganish va dunyoga tarannum etish biz uchun sharafla va mas'uliyatlari vazifadir. Shu bois ilm-fanni rivojlantirish va yosh avlod uchun ta'llim imkoniyatlarini kengaytirish niyatida Turkiy dunyo xartiyasida "Ilmdan o'zga nafot yo'q" degan yuksak axloqiy g'oyani muhrab bo'qdik.

Ushbu ezuq maqsad yo'lda Toshkentda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti ochilmogda. Mazkur o'quv dargohida turkiy davlatlarning yetuk professor va olimlari faoliyat olib borishi ko'zda tutilmoqda. Bu esa yosh avlodning intellektual

salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, ularning zamonaviy bilimlarni egallashiga munosib hissa qo'shadi, deb ishonaman.

Hurnmatli delegatsiyalar rahbarlari!

O'tgan yili O'zbekistonning Turkiy madaniyat va meros jamg'armasiga rasman a'zo bo'lib kirish haqidagi qarorini e'lon qilgan edik. Ushbu tuzilma doirasida umumturkiy madaniy merosimizn asrab-avaylash va uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish oldimizda turgan muhim vazifadir. Bu sohadagi muloqotni kengaytirish maqsadida Jamg'arma Kengashining navbatdagi yig'ilishini mamlakatimizda o'tkazishni taklif qilaman.

Davlatlarimiz o'tasidagi madaniy hamkorlikni rivojlantirishda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY alohida o'rning ega. Bu yo'naliшdagи sa'y-harakatlarimizni yangi bosqichga olib chiqish va TURKSOYning nufuzini yanada oshirish uchun uning faoliyati va tuzilmasini zamон talablariga mos ravishda takomillashtirish zarur, deb hisoblayman. Shu maqsadda tashqi ishlar va madaniyat vazirlarimizga Boku sammitiga qadar tegishli

takliflar ishlab chiqish vazifasini topshirsak, to'g'ri bo'ladi, deb o'layman.

Muhtaram hamkaslar!

Bundan uch yil oldin turkiy dunyo birligiga qo'shgan ulkan hissasi uchun buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etgan edik. Bugun ushbu nufuzli mukofot bilan atoqli turk olimi, bioximik, Nobel mukofoti sovrindori, janob Aziz Sanjar taqdirlanayotganidan behad mammunmiz. Bu mashhur olim O'zbekiston Milliy universitetining faxriy doktori ekanidan biz albatta g'ururlanamiz.

Aminmanki, bugungi taqdirlash marosimi turkiy dunyo olimlarini, jumladan, ilm-fan yo'liga dadil qadam qo'yayotgan yoshlarimizni yangi-yangi marralar sari rag'batlanirdi.

Aziz do'star!

Bugungi Budapest sammitida qabul qilingan muhim qaror va hujjalarni qardosh xalqlarimiz o'tasidagi tinchlik, hamjihatlik va barqaror taraqqiyotni mustahkamlash yo'lida yangi sahifa ochishiga ishonaman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

MUJDA

NOBEL SOHIBIGA NAVOIY MUKOFOTI TOPSHIRILDI

Vengriya poytaxti Budapest shahridagi Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti doirasida "Turkiy dunyo birligiga qo'shgan hissasi uchun" Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.



Mazkur mukofotga ilk bor atoqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov munosib ko'rib, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovga tantanali topshirgan edi.

Bu yil mukofotga taniqli turk biokimyogari, Nobel mukofoti sovrindori, O'zbekiston Milliy universiteti faxriy doktori Aziz Sanjar sazovor bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Aziz Sanjarni samimi tabriklab, nufuzli mukofotning ilm-fan arbobiga topshirilishi turkiy dunyo olimlari, jumladan, yoshlarini yangi marralarni zabt etishga ilhomlantirishini alohida ta'kidladi.

TAHRIRIYAT

TAASSUROT

VATAN UNUTMAYDI QAHRAMONLARNI



O'tgan yili Ozarbayjonga borganimda yurt bo'ylab sayohatni "Birinchi faxriy xiyobon" va "Ikkinchi faxriy xiyobon"lardan boshlagandik. Ularda Vatani va xalqi tinchligi yo'lida qurban bo'lgan mardlar dafn etilgan. Quroldoshlar go'yo qabristonda ham saf tortib, yelkama-yelka yotardi. Qora va oq marmarlarda harbiy libos kiyagan, qo'lida qurol tutgan qahramonlarning mag'rib surut qarqiyardi. Har qabr boshida bir bayroq olovdek hilpiraydi. Gul qu'ydik. Ta'zim qildik. Qaytdik.

Bizda ham shunday fidoyilar o'tgan. Ammo mustaqililik yillarda mamlakatimiz tinchligi yo'lida jon fido qilgan qahramonlarga atab biror yodgorlik o'rnatalmagandan andak o'ksigan edim o'shanda. Xayriyatki, orzum ushaldi... Nazarimda, yurtimiza kelgan har bir mehmon safarni poytaxtimizning Olmazor tumanida joylashgan G'alaba bog'idiagi "Millat fidoyilarini"ni ziyorat qilishdan boshlashi kerak. Chunki bugungi nurafshon kunlarga, osuda tunlarga aynan shu qahramonlarni tufayli erishdik.

Shu ezuq ar'anaga birinchilardan bo'lib amal qilish maqsadida kuni kecha "Jadid" gazetasi jamoasi bilan o'sha qutlug' maskanga bordik. Uning g'arbiy darvozasidan kiraverishda mazkur bog' boshligi – Shuhrat Yusupovni uchratish qoldik va yangi monumentallar haqidagi savollarni berdi. U kishi muhtasham majmuani bir boshidan sharhlay ketdi: "Hozir biz bog'ning "Millat fidoyilarini" deb nomlangan bo'limdamiz. Siz ko'rib turgan mazkur yodgorlik mustaqililik yillarda mamlakat himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining yorqin xotirasiga bag'ishlangan. Majmuuga qush parvozi balandligidan qarasangiz, O'zbekiston bayrog'idiagi yarim oy va o'n ikki yulduz shaklini ko'rasiz. Qarshimizda turgan salkam ikki metrli yulduzlarining qirralari o'ziga xos bitiktoz vazifasini o'taydi. Har birining yon tarafiga 196 nafar qahramon nomi zarhal harflar bilan yozilgan".

Bular uyda mushfiq onasi, nuroni yotasi, nazokatli ayoli kutayotgan askar chegarada sobit turgancha osmonga tikilganida ko'ringan yulduzlardir ehtimol? Har bir ko'rsatgan jasorat so'ngida munosib taqdirlanganida yelkasiga yog'ilgan yulduzlardir balki? Yoki bular bugungi farovon hayotimiz uchun jonini qurban qilgan va hozir bizga ko'kdan qarab turgan yulduzlar siyosidir? Kim bilsin...

E'tiborilisi, ularda zamonaviy monitorlar o'rnataling bo'lib, millat fidoyilarini to'g'risida ma'lumotlar foto va videolar orqali namoyish etib boriladi. Sizdan birgina nozik harakat kifoya. Har bir jangchingin o'z hikoyasi bor. Hammasi yurt haqida, tinchlik to'g'risida. Mardlik nomalarini o'qirkansiz, bo'g'zingizga faxr aralash nimadir tiqiladi. Yoshlarni boshlagan ko'zingizni hamrohlardan olib

ochishga tirishasiz. Ammo foydasiz, negaki, ularning ham namchil ko'zida allaqachon yulduzlar militay boshlagan...

– Mazkur majmuuaning orqa tomonida... – jaranglagan ovoz ipakdek mayin bo'lsa-da, tuyqus cho'chitib yubordi. Gapiroytagan ayol G'alaba bog'i yodgorlik majmuasi yetakchi ilmiy xodimi Baro Isoqova ekan, – ya'ni "oy"ning orqa tarafida mana shunday yorug' kunlarimiz uchun kurashgan insonlar timsolini ko'rishingiz mumkin. Ushbu haykaltoshlik kompozitsiyasida Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Oliy sud va prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya kabi tuzilmalarda faoliyat olib borgan va shu faxrli yo'lida halok bo'lgan xizmatchilar siyosisi aks ettirilgan.

Demak, bu – bag'rida quyosh nurida yal-yal tovlaniib oqayotgan ko'zgusifat sharsharasi bor "oy"ning orqa tomoni... "Oyin tunlar, osoyishta, tinqi tonglar" ortida shu insonlarning zahmatlari yotarkan-da?! Oyning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'u deganlari shumikin?

Markazda bir-biriga suyangan, jigar-goshasi ketgan yo'lga ko'z tikkan mehribon ota-onasi haykali qad rostlagan. O'zbekona kiyungan, keksa bo'lsa-da bardam otaxon yuzidagi allanechuk mahzunlik bilan marhum farzandi ko'rsatgan jasoratdan g'ururlanib turibdi. Qo'yib bersang, hoziroq qurol olib o'g'li jon bergan joyga boradi. Eh-he, agar bu haykalga til bitsa bormi, belbog'ini yana-da mahkam bog'lab, bir chuquq nafas olardagi, shunday derdi: "Birgina o'g'lim bor edi... Lekin o'n nafar bo'lganda ham barchasini Vatan himoyasiga yuborgan bo'lardim. Albatta, saf boshida o'zim turaman!"

Shunda ham yonidagi onaxon bir sapchib tushardi. Ammo erining o'tkir nigozidan uyabli, yana shu holatiga qaytadi. Hozir u bir qo'l bilan katta, qalin, oq ro'molining bir chetidan omonat ushlagan, bir qo'lida harbiy libos... Mahzun, xomush, dilgir – shu bo'yoqdagi barcha so'zlar birlashsa, mushtipar onaizorning qiyofasiga yaqinlashadi. Ularning ortidagi devorda garishi bir tishlangan non (unga uzoqroq qulog'ingizga "Oy borib, omon

qaytsin" degan ovoz eshitilgandek bo'ladi), o'qilgan-o'qilмаган, rangin va rangsiz xatlar, Samarqandagi Sherdor madrasasi peshtoqidagi quyoshdor arslon, beshik – yurtsevar, tinchliksevar avlod ulg'ayadigan ezuq niyat beshibi hamda mangu o'chmas umid chiroq'i bor. Ikki yonda esa biz odatda xotira xiyobonlarida uchratadigan ma'naviyat va ma'rifat ustuni tasvirlangan.

– Mehrob oldidagi milliy uslubdagi ikki ustun, milliy g'oya va muqaddaslikka suyangan davlat tayanchi ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerdagi har bir siymoda haqiqat o'z aksini topgan, – deydi "Shon-shara" davlat muzeysi kuzatuvchisi Nigora Hamroyeva, – Qurol-yarog'deysizmi, texnika deysizmi, askarlar kiyimi, yuz tuzilishi, hatto gavdalari ham o'sha davrda qanday bo'lgan bo'lsa, shunday ishlangan. Ona haykalining chap orqa tomonidagi beshik vatanparvar, jasur farzandlar tarbiyalangan muqaddas uy muhitini ifodalaydi. Otaning ort tomonidagi yig'ilgan ko'rpa-to'shaklar har bir ota-ona farzandining kelajagi haqidagi orzu-umidini anglatadi.

Uning so'zini Baro Isoqova davom etтиrdi: "Misol uchun, Mudofaa vazirligi uchun ajratilgan bo'limni olaylik. Birinchisi – harbiy uchuvchi, katta leytenant Shermuhammad Ashirov. Qarang, yuzida viqor, tezlik va mas'uliyat tuyg'usi. 2000-yilda Mi-8 vertolyotida Surxonaryoda terrorchilarga qarshi kurashda dvigatelga shikast yetishi natijasida qahramonlarcha halok bo'lgan. Uchuvchining yonida o'qchi chikich serjant Yunus Oxunov, taktik nimcha kiyagan, hujumga shay. Markazda – serjant Ulug'bek Barnoyev, formasidagi emblema, kamar, yuzidagi shijoat, ishonch va qat'iyat u haqida ma'lumot berib turibdi. Uning yonida snayper, leytenant Sayyor Sa'dinov yelkasiga avtomat osib olgan, lekin pozitsiyasi sokin va mustahkam. Yuzidagi vazminlik, ko'zidagi kuzatuvchanlikha e'tibor bering. Sa'dinovning yonidagi jangchi – feldsher serjant Qahramonjon Madolimov, uning yuzida jasorat, shu bilan birga shifokorlarga xos rahmidilik aks etgan. Qo'lida tez tibby yordam sumkasi. U yaradon qurashni yelkalgancha, bir qo'lida qurul bilan jang qilgan. Quroldoshlariga tibbyi qurashni sifatida maxsus operatsiya vaqtida qahramonlarcha halok bo'lgan. Uning

yomg'iri ostida qoladi. Fon qismidagi tog'lar – davlatimiz mustahkamligi va tabiiy himoyasi. Samolyotlar, vertolyotlar va tanklar – zamonaviy harbiy-teknik salohiyatni ifodalaydi".

Ko'nglimizda cheksiz iftixor-u alam bilan keyingi bo'limga yuzlanamiz. Unda Davlat xavfsizlik xizmati xodimlari tasvirlangan. Bir qo'lida bola ko'targancha olislariga tikilib turgan, niqobdag'i maxsus xizmat xodimini tanidim. U Suriyadagi urush o'chog'ida qiyin ahvolda qolgan, ota-onasidan ayrlig'an balorlarni olib kelishga qaratilgan "Mehr operatsiyasi"da faol ishtiroti etgan mard o'g'onlar safida bor edi. Ular bilan bir qatorda ikki nafar prokuratura xodimi, tizim emblemasi, sudyalar, adolat tarozisi ishlangan.

Shu payt G'alaba bog'i yodgorlik majmuasi boshlig'i Shuhrat Yusupov Davlat Bojxona qo'mitasining to'rt nafar xodimini tanishtira ketdi: "O'ng tarafda pilotka kiyagan ayol podpolkovnik Malika Qoryog'diyeva – Bojxona tizimidagi ilk xodima hisoblanadi, yonidagi starshina Saidakbar Najimov, 1991-yil Surxonaryda Bojxona boshqarmasida ko'chma bojxona posti kichik inspektorlavozimida xizmat qilgan. 1992-yil 25-august kuni qonunbuzlarlarga qarshi kurashish vaqtida qorulli hujum oqibatida halok bo'lgan. Oxiridagi katta serjant Akmal O'rınboev esa boshqalardan farqli ravishda xizmat iti tasmasini ushlab turgan holda tasvirlangan. U 2021-yil iyulda vafot etgan. Xizmati davomida 60 dan ortiq guruh (400 dan ziyod kinologlar)ga instrukturlik qilgan.

Gap-gap bilan bo'lib, "oy"ning deymizmi, "oy"ning deymizmi, ishqilib, bir chekkasiga borib qolibmiz. Tag'in markazdagi "Ota-onasi" siyosiga qaytdim. Har bir qahramonning taqdiri xayolda qayta varaqlandi. Shunday qilib, o'n tomoniga o'tamiz. Mutaxassislar aytmoqchi "balandligi 5,2 metr, eni 42 metr bo'lgan barelyef kompozitsiyaning bu qismi Ichki ishlar xodimlari tasviri bilan boshlanadi. Chap tomonda polkovnik Bahodir Hoshimov mardonavor ko'rinishda, nigoohlari jiddiy. U 2000-yil 22-august kuni Izboskan tumanida qurollangan terrorchilarga qarshi guruhi rahbari sifatida maxsus operatsiya vaqtida qahramonlarcha halok bo'lgan. Uning

yonida savyor maxsus piroteknik himoya kiyimida tasvirlangan. Yon tomonidagi qurol ushlagan askarning egnida o'q o'tkazmaydigan kamzul. To'rtinchı askar obrazining qo'lida himoya qalqoni, yuzida niqob, ko'ksida o'q o'tkazmaydigan zirbi bor. Beshinchisi patrol post xizmati xodimi, o'z xizmat burchini bajarishga shay holda aks ettirilgan. Orqa tomonda baland tog'lar va harbiy mashinalar ko'rinishi jangovar muhit va yengil, ammo kuchli atmosferani ko'rsatib beradi. Ular kiyimlari va uskunalar yuqori darajada himoyalangan va har qanday jangovar vazifani bajarishga tayyor.

Keyingi bo'limda Milliy Gvardiyaning to'rt nafar askari gavdalangan. Boshidagi III darajalari serjant Husniddin Suyarov hamda oddiy askar Hazrat Suyunov 2020-yil 1-may kuni Sardoba suv omborida yuz bergan texnom ofatda fuqarolarni qutqarish vaqtida halok bo'lgan.

Keyingi haykallar Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarini ifodalaydi. Birinchisi oddiy askar Abdurahmon Azimxo'jayev mo'tabar onaxonga yordam bermoda. U 2021-yil 7-iyunda Toshkentning Bo'rijar kanalida cho'kayotgan fuqaroni qutqarib, o'zi cho'kib ketgan. Uning yonida oddiy askar Otabel Sultanov yosh qizaloqni qo'lida ko'tarib, uni xavfsiz joyga olib bormoqda. Ammo... 2021-yil xizmat vaqtida jangovar vazifani bajarish mobaynida kuyish oqibatida hayotdan ko'z yumgan. Ularning yonidagi ikki askar: biri g'avvos libosida, suv ostidagi favqulodda vaziyatga yordam berish uchun tayyor, ikkinchisi esa gaz niqobida, kiyimiy va gazli tahdidlarga qarshi himoya sifatida ko'rsatilgan. Bu sahna favqulodda vaziyatlar xizmati xodimlari mas'uliyati va ko'makka muholturga yordam ko'rsatish istagini ifodalaydi.



TARIX CHARXPALAGIDA BIR BUTUN MAKON

Boshlanishi 1-sahifada.

Korazm qadimgi davrlardan noq Markaziy Osiyoning madaniyat markazalaridan biri bo'lib kelgan. Bu hududdagi davlatchilik an'analarini, jumladan, afrig'iylar, xorazmshohlar sulusasi, saljuqiyalar va keyinchalik Amir Temur va shayboniyalar davridan qolgan yodgorliklar bu yerning boy tarixiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Mazkur submintaqa Amudaryoning quiy oqimida joylashgan bo'lib, qadimdan Xorazm vohasi deb nomlangan. Uning atrofini cho'llar va dashtlar o'rabi turgan bo'sa-da, Amudaryo tufayli hisoldor va hayot-baxsh maskanga aylangan. Ilk shaharozlik va sug'orma dehqonchilik ana shu yerda shakllangan.

Hozirgi Qoraqlapog'iston hududi esa Xorazm vohasining ajralmas bir qismi sifatida asrlar davomida Xorazm madaniyati, tili va tarixiy jarayonlari bilan mushtarak rivojlanib keldi. Qoraqlapqolar turkiy xalqlar orasida o'zgacha o'rni tutadi. Muhammad Amin inoq davrida (1755–1790) qoraqlapqoq urug'larining Amudaryo deltasingin sharqiy qismidagi Ko'ko'zak va Orol o'tasidiagi yerlarga joylashuvi, shuningdek, Muhammad Rahimxon I (1806–1825-yillar) davrida Amudaryo quiy deltasiagi hududlarga tarqalishi ularning bu yerlardagi turli etnik guruhlar bilan munosabatlari mustahkamlab, madaniy-ma'naviy qadriyatlarning uyg'unlashib borishiga xizmat qilgan. Ular Amudaryo vodiysida yashab, o'z milliy urf-odatlari, tili va san'ati bilan Xorazm hayotida faol ishtirok etib keldilar.

O'zbekistonning Shimoliq'arbiy qismida joylashgan Qoraqlapog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining tarixi, madaniyati va geografiyasi o'zaro chambarchas bog'langan. Xususan, umumiy sug'o'rish tizimlari, sunvi boshqarish an'analar, savdo aloqalar, oilalar o'tasidiagi nikohlar min-taqani birlashtiruvchi asosiy omil bo'lib kelmoqda.

Son'ggi yillarda submintaqada o'tkazilayotgan madaniy festivallar, ilmiy tadqiqotlar va merosni saqlash loyihalari mazkur hududni yagona madaniy makon sifatida tiklashga xizmat qilmoqda. Bu sa'y harakatlar nafaqat madaniy tiklanishga, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka ham hissa q'shayotir.

Shuni unutmaslik kerakki, hududiy birlik gomogenlikni emas, balki xilma-xillik ichidagi uyg'unlikni anglatadi. Qoraqlapqolar o'z urf-odatlari, tili va etnik o'zligiga ega bo'lgan holda, xorazmliklar ham o'z shevalari va shahar madaniyatini saqlab kelmoqda. Bu xilma-xillik umumi tarix va hayot tarzi asosida uyg'unlikka erishgan.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm va Qoraqlapog'iston tarix, madaniyati va geografiya jihatidan yagona makon sanalishi ilmiy jihatdan aksiomada desak mubolog'a emas. Arxeologiya, lingvistika, og'zaki an'analar, siyosiy tarix va zamonaliv ijtimoiy amaliyotlar barcha chiqur ildiz otgan bog'liqlikni ko'rsatmoqda. Bu birlikni taniy olish va himoya qilish nafaqat ilmiy, balki umummilliy ahaliyatga ega. Mamlakatimiz o'zining milliy o'zligini va meros siyosatini rivojlanirayotgan bir paytda, xalqimizning haqiqiy kuchi uning buyuk o'tmishida va Yangi O'zbekistonning yorqin kelajagi sari og'zibchilik bilan intilishida yaqqol namoyon bo'lyapti.

Bahrom ABDUHALIMOV,
O'zbekiston Fanlar
akademiyasi
Sharqshunoslik instituti
direktori

MUSHOHADA

"MA'RIFAT YO'LI, ALBATTA, BOSIB O'TILG'USI"



Shunday suhbatdoshlar bo'ladiki, ularning har bir gapi – tajriba, har bir mulohazasi – tahlil, har javobi – tadqiq. Kinematografiya agentligi direktori, adabiyotshunos, jadidshunos olim, professor Shuhrat Rizayev ana shunday dilkash suhbatdoshlar sirasidan. Olim bilan bevosita bugungi adabiy jarayonlar, o'zbek dramaturgiysi, kino va teatr asarlari mohiyati, yoshlar ijodi yuzasidan fikrashidik.

— Siz serqirra ziyolisiz. Avvalo, jadidshunos olim, kino va teatr arbobi, nuktadon tanqidchi sifatida samarali faoliyat olib boryapsiz. Ma'lumki, jami ma'rifiy yo'nalishlarning charog'boni kitob bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Shuning uchun dastavval bugun bizdagi adabiy asarlar salmog'i haqida mulohaza yuritsak.

— Bugun o'zbek adabiyotida, milliy dramaturgiyada, kino va teatr asarlarda yangicha yondashuvlarga intilish, izlanish, kreativ fikrashidik. Asarini e'lon qilganidan keyin, oradan yillar o'tib, Pokistonga xizmat safariga boradi. Pokistonga avtomobil yo'il bilan Afq'onistonдан o'tadi. Shu jarayonda xil yo'nalishlarning bo'lgan. Bularning barchasini o'qib, kuzatib, ko'rib borish imkonisz. Boisi, biz shiddatli axborot asrida yashayapmiz. Dunyoning turli burchagidan har xil shakldagi axborotlar yopirilib kirib kelmoqda. Buning hammasini odam o'z tafakkuri surz'ichidan o'tkazib, uni ma'lum tizimga solib, muayyan bir maxraj ostida birlashtirishi oson emas. Shu ma'noda bugun turfa sohalardan kelayotgan axborotlarni o'qib, o'rganib, o'lashtirib, ulardan tafakkur uchun oziqloshing tarjibasi, bilim darajasi, uquvi, ishtiyogiqoq baland odamlargagini nasib qiladi deb o'layman. Jamiyatda bu toifa odamlar, taassufki, kamayib boryapti. Bunday bo'lishiga bosh sabab iste'mol kayfiyatiga haddan tashqari berilishdir. Bu esa kunini bermalol, mas'uliyatdan xoli, beparvolik bilan o'tkazishga intiladigan avlodning paydo bo'lib qolayotgani bilan belgilanadi desak yanglish bo'lmash. Shuning uchun ham biz "yoshlarmiz unga qaramayapti, bunga qaramayapti, buni bilmayapti, bizni davrimizda unaqa edi, bunaqa edi", degan shikoyatomuz gaplarni ko'p gapiramiz. Ochig'i, bunaqangi gaplar ko'pincha o'z holicha qolib ketadi. Amaliy ishlari bilan mustahkamlanmaydi.

Hayotiy masalalar bilan chambarchas amaliy harakatlar bo'lishi lozim. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasiga kirib boradigan adabiy asarlar, san'at mahsullari navqiron avlodni tirkilik haqida o'lyashga, hayotda o'z "men"ini va o'nmini topishga, intilishga da'vat etadigan, fikrashidik undaydigan asarlar bo'lishi kerak. So'nggi vaqtarda ana shunday asarlarga ko'p ham duch kelmayapman. Balki yozilayotgandir, bordir, ko'pdir. Lekin men ko'rib qolayotgan aksar asarlar mana shu tushunchalardan yiroq. Balki, dav xususiyati, zamon taqqosidir bu. Ammo men bunday masalalarda biroz boshqacharoq yondashuvni ma'qul ko'raman. Yondashuv shundan iboratki, har bir o'qilgin bitik mulohazaga undashi kerak. To'g'ri-noto'g'ri, yaxshiyomon, ma'qul-noma'qul, deydiqan tushunchalarning farqiga borib, qat'iy xulosa chiqarib olish uchun ma'naviy ozuq beradigan asarlar bo'lishi shart.

Masalan, dramaturgiya sohasini olib qaraydigan bo'lsak, tariximiz ham, bugungi kunitimiz ham zamonaliv milliy asarlarida o'z ifodasini topayotgandek tuyuladi. Lekin bu asarlar badiiyat nuqtayi nazaridan qanchalik talabga javob beradi! Tomoshabin yoki o'quvchi xotirasida saqlanib qolib, qanchalik ta'sir ko'rsatadi? Hamma gap shunda! To'g'risini aytam, men bu masalalarda biroz shubhalaraman. Aytganimdek, bu asarlardan ko'pining badiiyati, adabiy quvvati ancha pastdek tuyuladi menga. Mavzu dolzarbli, syujet masalalariga e'tibor qilamiz-u, mavzuni o'rganish, kerak bo'lsa ilmiy, badiiy, ma'rifiy tahsil etish borasidagi toqat bilan olib boriladigan ishlarni tasavvur qilmaymiz. Agar shularni mushohada qilib, mavzuga

kirishsak, asarlarga ham jon kiradi.

Shu o'rinda, masalan, Oybek domla yoki G'afur G'ulomning o'z davrida O'zbekiston Fanlar akademiyasi o'qida saylangani sababini tushungandek bo'lamon. Qachonki ularning asarlarini o'qisam, xususan, Oybekning "Qutlug' qon", "Navoiy" romanlari aks etgan voqejalari va obrazlar, personajlar tarix nuqtayi nazaridan, olimlik pozitsiyasidan o'rganilsa, tarix yoki adabiyotshunoslik sohasidagi bir olimning umri davomida amalga oshirishi mumkin bo'lgan ilmiy tadqiqotlardek taassurot yaraladi. Oybek domla "Navoiy" romanini yozish uchun o'gan asrning 20–40-yillarda imkoniyati darajasida bo'lgan 500 dan ziyod birlamchi ilmiy manbadan foydalangan ekan. Hozir bitta tarixiy kitob yozish uchun birorta yozuvchimiz, hech bo'lmasa, ellikta, boring ana, o'nta manba ko'rarmikan! Menimcha, ko'rishi shart.

Oybek domla "Navoiy" romanida Hirotni tasvirlab, Navoiyning Xurosnon saltanat poxtaxtida amalga oshirgan ishlarni badiiy lavhalarda aks ettirib, asarini e'lon qilganidan keyin, oradan yillar o'tib, Pokistonga xizmat safariga boradi. Pokistonga avtomobil yo'il bilan Afq'onistonдан o'tadi. Shu jarayonda xil yo'nalishlarning bo'lgan. Bularning barchasini o'qib, kuzatib, ko'rib borish imkonisz. Boisi, biz shiddatli axborot asrida yashayapmiz. Dunyoning turli burchagidan har xil shakldagi axborotlar yopirilib kirib kelmoqda. Buning hammasini odam o'z tafakkuri surz'ichidan o'tkazib, uni ma'lum tizimga solib, muayyan bir maxraj ostida birlashtirishi oson emas. Shu ma'noda bugun turfa sohalardan kelayotgan axborotlarni o'qib, o'rganib, o'lashtirib, ulardan tafakkur uchun oziqloshing tarjibasi, bilim darajasi, uquvi, ishtiyogiqoq baland odamlargagini nasib qiladi deb o'layman. Jamiyatda bu toifa odamlar, taassufki, kamayib boryapti. Bunday bo'lishiga bosh sabab iste'mol kayfiyatiga haddan tashqari berilishdir. Bu esa kunini bermalol, mas'uliyatdan xoli, beparvolik bilan o'tkazishga intiladigan avlodning paydo bo'lib qolayotgani bilan belgilanadi desak yanglish bo'lmash. Shuning uchun ham biz "yoshlarmiz unga qaramayapti, bunga qaramayapti, buni bilmayapti, bizni davrimizda unaqa edi, bunaqa edi", degan shikoyatomuz gaplarni ko'p gapiramiz. Ochig'i, bunaqangi gaplar ko'pincha o'z holicha qolib ketadi. Amaliy ishlari bilan mustahkamlanmaydi.

Yugorsha suhbatdoshlar bo'ladiki, ularning har bir gapi – tajriba, har bir mulohazasi – tahlil, har javobi – tadqiq. Kinematografiya agentligi direktori, adabiyotshunos, jadidshunos olim, professor Shuhrat Rizayev ana shunday dilkash suhbatdoshlar sirasidan. Olim bilan bevosita bugungi adabiy jarayonlar, o'zbek dramaturgiysi, kino va teatr asarlari mohiyati, yoshlar ijodi yuzasidan fikrashidik.

Bo'ldi. Bu kinodir, badiiy adabiyotdir, boshqa san'atdir, umuman ijod ahli uchun niyoyatda muhim talab. Ana shu ma'noda men asarlarimizda puxta bilim asosi, omili bo'lishini istayman va o'qiganlarimda ham shunday daraja bo'lishini xohlayam. Qolaversa, bu – davr talabi, Prezidentimiz talabi.

— Jadidlar hayotini o'rgangan, tadqiq etgan olim, "Jadid dramasi" kitobi muallifi sifatida bugun jadidlar hayotiga bag'ishlab suratga olinayotgan filmlar haqida, ularning tarixiy haqiqatlarga qay darajada to'g'ri kelishi xususida nimalar deysiz?

— Men o'zim jadidshunoslik, jadidlik harakatini o'qib o'rgangan bir mutaxassis sifatida ular haqida filmlar olinishi-da bevosita ishtirot etdim, albatta. Masalan, Abdulla Avloniy, Ibrat, Behbudiy to'g'risidagi badiiy filmlar, o'lab hujjatli, badiiy-publisistik filmlar shular jumlasidan. Suratga olingan aksariyat filmlarning, ayniqsa, hujjatli filmlarning senaristi mualliflari o'z vaqtida jadidlikni chiqur o'rgangan Solih Qosimov, Begali Qosimov, Naim Karimov kabi olimlarimiz bo'lgan. Ulardan keyin Bahodir Karimov, Bahrom Irzayev, Baxtiyor Hasanov kabi bir qator olimlarni filmlarni suratga olish jarayonlariga jaib qildik. Ibrat haqidagi filmlni suratga olishda navqiron umrini Is'hoqxon Ibrat hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlagan olim Ulug'bek Dolimova murojaat etdi.

Jarayonga olimlar bilan birga yozuvchi-adiblarimizni ham tortdik. Masalan, Abdulla Avloniy haqida filmga Tohir Malikning "Qaldirg'och" qissasi asos qilib olindi. Tohir aka Avloniy hayotini atroficha o'rgangan va Mustaqillik-kacha Avloniy haqida o'sha asarini yaratgan edi. Vaqtlar o'tib mana shu asarni bizning iltimosimiz, talablarimiz bilan qayta ishlab, kinosenaristi holida taqdim etdilar. Behbudiy haqida Naim Karimov bosh ilmiy konsultantligida rejissyor Baqo Sodiqov film suratga oldi va yuqorida aytganimdek, filmlarning hammasiga qator ilmiy tadqiqotlar asos bo'lib xizmat qildi. Shuning uchun ham ularni men muayyan ma'noda namuna deb hisoblayman. Lekin bir narsani ta'kidlash kerakki, kino, teatr, san'at asarlarda, birinchi navbatda, xalqimizni ularning ma'rifikat nuri bilan tanishitish bosh maqsadimiz bo'ldi. Jadid bobolar tarqatgan ziyo, xalq ichida olib borgan ishlari, kechmishlari haqidagi malumotlarni badiylashtirib kinofilmarga o'girdik. Bunda bevosita jadidlarning "ma'rifikat yo'li, albatta, bosib o'tilg'usi" degan qarashlariga suyandik. Ana shunday "ma'rifikat yo'li" bilan suratga olingan va ma'rifikat tarqatish istagida jadidlar haqidagi haqiqatlarni atishni niyatida yaratilgan filmlar kelgusida endi yangi, ta'kidlaganimizdek, yuksak badiiy-falsafiy, ruhiy, tahliiy kinoasalarini suratga olishda negiz bo'lib xizmat qilishi kerak. Biz hozirgi yosh avlodidan meni o'rta yoshlarni, balki navqiron yoshlarning ham qalbiga, fikratiga yo'l soluvchi uslub. O'qishga, kitobxonlikka o'qivchini biroz tolqitradigan, bugungi o'quvchiga uncha ham ma'qul kelavermaydigan jihatlar bo'lib qoldi. Shuning uchunma, Xayriddin Sultanov ham o'z kitoblarida ana shu jihatlarni, ya'ni ortiqcha tafsil-u tasvirlarga e'tibor qaratmay, o'z qahramonlarini, ayni hayotiy voqealari bilan badiiy bayon usulida ko'rsatish yo'lini tanlaydiki, pirovirda hech bir personajning kechmishlari o'quchini befaroq qoldirmaydi. Uning goho komik vaziyatlarga tushadigan, goho niyoyatda chiqur o'rganishga bag'ishlagan olim Ulug'bek Dolimova murojaat etdi.

Jarayonga olimlar bilan birga yozuvchi-adiblarimizni ham tortdik. Masalan, Abdulla Avloniy haqida filmga Tohir Malikning "Qaldirg'och" qissasi asos qilib olindi. Tohir aka Avloniy hayotini atroficha o'rgangan va Mustaqillik-kacha Avloniy haqida o'sha asarini yaratgan edi. Vaqtlar o'tib mana shu asarni bizning iltimosimiz, talablarimiz bilan qayta ishlab, kinosenaristi holida taqdim etdilar. Behbudiy haqida Naim Karimov bosh ilmiy konsultantligida rejissyor Baqo Sodiqov film suratga oldi va yuqorida aytganimdek, filmlarning hammasiga qator ilmiy tadqiqotlar asos bo'lib xizmat qildi. Shuning uchun ham ularni men muayyan ma'noda namuna deb hisoblayman. Lekin bir narsani ta'kidlash kerakki, kino, teatr, san'at asarlarda, birinchi navbatda, xalqimizni ularning ma'rifikat nuri bilan tanishitish bosh maqsadimiz bo'ldi. Jadid bobolar tarqatgan ziyo, xalq ichida olib borgan ishlari, kechmishlari haqidagi malumotlarni badiylashtirib kinofilmarga o'girdik. Bunda bevosita jadidlarning "ma'rifikat yo'li, albatta, bosib o'tilg'usi" degan qarashlariga suyandik. Ana shunday "ma'rifikat yo'li" bilan suratga olingan va ma'rifikat tarqatish istagida jadidlar haqidagi haqiqatlarni atishni niyatida yaratilgan filmlar kelgusida endi yangi, ta'kidlaganimizdek, yuksak badiiy-falsafiy, ruhiy, tahliiy kinoasalarini suratga olishda negiz bo'lib xizmat qilishi kerak. Biz hozirgi yosh avlodidan meni o'rta yoshlarni, she'riy kitoblar kerak. Nashrda chiqayotgan yaxshi she'rlarni alohida, yaxshi nasriy asarlarni alohida, yaxshi maqolalarni alohida kitob qilib chop etish va tarqatish zarur. Ayniqsa, o'quv muassasalariga ko'p tarqatish kerak. O'ylaymanki, bu yo'nalishda "Jadid" gazetasi oldida halil juda katta vazifalar bor va bu ishlarni ado etishga quvvati ham yetadi. Tez fursatlarda mana shu niyatlarimiz ham amalga oshsa, ajab emas.

— Shuhrat aka, dildan suhbat uchun sizga minnatdorlik bildiramiz va tahlliliy, tanqidiy, mulohazali maqola va suhbatlariningizni yana gazetamiz sahifalarida kutib qolamiz. Zarnigor IBROHIMOVA suhbatlashdi.

ni kuzatib borgan odam yuksak adabiyotning hidini topadi ulardan. Oxirgi paytda Xayriddin Sultanovning uchta kitobi, mening nazarimda, hozirgi o'zbek adabiyotida tom ma'nodagi voqealari bo'ldi: "Odamlardan tinglab hikoya", "Navoiy 30", "Ishonch telefon". Mana shu uchta asar o'zbek adabiyotining bugungi dorasini ko'satadigan hodisalar bo'ldi desam yanglismagan bo'lamon.

"Ishonch telefon" haqida salmoqla maqola yozdim. Bu asardan juda ta'sirlanib, ma'naviy zavq olnamindan to'qilinlanib yozdim. Men o'zbek nasrinining bugungi yo'nalishini Xayriddin Sultanovning shu uch kitobida namoyon etgan uslubi yo'nalishida bo'lishi kerak deb o'layman. To'g'risi, katta ichki monologlar, ruhiy tahillar, tabiat, jamiyat va inson holatlari tasvirlangan kitoblarimiz o'quchvini biroz tolqitradigan, bugungi o'quchvicha uncha ham ma'qul kelavermaydigan jihatlar bo'lib qoldi. Shuning uchunma, Xayriddin Sultanov ham o'z kitoblarida ana shu jihatlarni, ya'ni ortiqcha tafsil-u tasvirlarga e'tibor qaratmay, o'z qahramonlarini, ayni hayotiy voqealari bilan badiiy bayon usulida ko'rsatish yo'lini tanlaydiki, pirovirda hech bir personajning kechmishlari o'quchvicha tafsil-u tasvirlarga e'tibor qaratmay, o'z qahramonlar

QASRI KINODA NASR-U NAVO

Boshlanishi 1-sahifada.

Hozirgi kunda respublikamizda 600 dan ziyod nashriyot, 700 ga yaqin kitob do'konlari, shu bilan birga, kitob yetkazib berish xizmatlari hamda onlayn savdo platformalari faoliyat yuritmoqda.

Bularning barchasi O'zbekistonda kitobxonlik masalasi davlat e'tiboridagi muhim masala bo'lib, mutolaa madaniyatini yuksaltirish umummilliy harakatga aylanayotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda zamonaviy o'zbek adabiyoti ham sezilar yuksalish bosqichiga qadam qo'yanigan yaratilayotgan yangi-yangi badiy asarlar misolida ko'rish mumkin.

Kuni kecha poytaxtimizdagi muhtasham "Renessans" san'at



saroyida mana shunday o'ziga xos asarlardan biri – "Osmoni falaklarda" nomli yangi kitob taqdimoti bo'lib o'tdi.

Taniqli yozuvchi Xayriddin

Sulton qalamiga mansub ushbu kitob o'zbek adabiyotida deyari yoritilmagan mavzu – uchuvchilar hayotiga bag'ishlanadi. Majoziy ma'noda "samo lochinlari" deb ataladigan mashaqqatlari kasb egalarining muntazam mardlik va matonat talab etadigan faoliyati, ularning favqulodda holatlardagi qalb kechinmalari, qat'iyat va irodasi, sevgi va burchga sadoqat tuyg'ulari chuqur dramatizm bilan tasvirlanadi.

Kutilmagan, shiddatli voqealarga boy, keskin syujet yo'naliishiga ega hikoyalarda bosh qahramonlarning ma'naviy jasorati va insoniy ojizliklari, odam-zod ruhiyatining sirlari jumboqlari betakror xarakterlar timsolidi namoyon bo'ladi.

Taqdimot marosimiga buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning: "Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'yidik, bas, biz har bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va yangarishga o'zimizda majburiyat his etamiz", degan so'zlar bosh g'o'yasi markazi, "Uzbekistan airways" kompaniyasi va Badiiy akademiya hamkorligida tashkil etildi.

Mavzu va voqealikka yondashuv, shakl-shamoyil jihatidan ham yangicha talqiniga ega ushbu kitob "Adabiyot" nashriyoti tomonidan chop etilgan.

O'z muxbirimiz.

etilganini alohida ta'kidlash joiz. Teatrlashtirilgan sahnalar, nashriy, she'riy va musiqiy talqinlar, kinolavhalar yig'ilganlarda unutilmas taassurot goldirdi.


Taqdimot O'zbekiston Yozuvchilar yuushmasi, Madaniyat vazirligi, Kinematografiya agentligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Uzbekistan airways" kompaniyasi va Badiiy akademiya hamkorligida tashkil etildi.

Mavzu va voqealikka yondashuv, shakl-shamoyil jihatidan ham yangicha talqiniga ega ushbu kitob "Adabiyot" nashriyoti tomonidan chop etilgan.

Tadbir biz o'rgangan, ko'nikan odadagi kitob taqdimotlaridan mutlaqo boshqacha, yangicha shakl va noan-anaviy yo'sinda tashkil

YANGI NASHR

XX asr jahon adabiyotida absurdizm hayotning ayrim tomonlari bema'ni, mutlaqo mantiqsziz ekanimi tasvirlaydigan oqim sifatida shakllangan. Uzoq vaqt mobaynida absurd dramalariga quruq safsata sifatida qarab kelingen. Lekin o'tgan asrning 70-yillardan bu oqim vakillari davr oldiga qo'yan muammolar dolzarbliy ayon bo'ldi. Absurd dramaturgiya vakillarining asarlar kishilarining teatr va sahna haqidagi tasavvurlarini yangiladi, unga zamonaviylik baxsh etdi.



Absurd dramalar taqdimoti

Biz real hayotda ro'y beradigan barcha voqealarda qandaydir mantiqiy bog'lanish bo'lishiga o'rganib qolganmiz. Go'yo hamma savollarga javob bo'lishi zarurdek, odamlar yashashdan mantiq izlab charchamaydi. Yozuvchilarining asarlarida ham shunday: har birida mantiq ustuvor. Biroq absurd asarlar odatiy asarlardan keskin farq qilib, turfa falsafalarga yo'g'rilib, butunlay o'zgacha usulda yaratiladi. Jumladan, absurd pyesalarning xotimi kishini hayajonga soladi, hissiyorlarini junbishga keltiradi, tushunib bo'limas, ayni paytda hammasi aniqlik taassurot goldiradi.

Yaqinda poytaxtimizdagи "Renessans" kino uyida ilk bor yurtimizda chop etilgan absurd dramalar to'plamalarining taqdimoti bo'lib o'tdi.

"Karkidon" nomli birinchi to'plamdan taniqli yozuvchilar Samuyel Bekket, Jan-Pol Sartr, Ejen Ionesko, "Kaligula" nomli ikkinchi to'plamdan Alber Kamyu, Fridrix

Dyurrenmatt, Slovomir Mrojek, Fernando Arrabal, Frans Kafka hamda Kobo Abening absurd dramalari o'r'in olgan. Mazkur asarlarni o'zbek adabiyoti va teatr san'atining taniqli namoyandalar Olimjon Salimov, Jabbor Eshonqul, Nabi Jaloliddin, Abdulaziz Rahmatov, Abdurahmon Abdunazarov, Shahnoza Nazarov, Maftuna Muhammadaminova o'zbek tiliga o'girishgan.

Taqdimotda so'zga chiqqanlar absurd asarlarining adabiyot va san'atdagi o'rni, bugungi kundagi ahamiyati, tarjimonlarning mahorati haqida so'z yuritib, yig'ilganlarni, barcha kitobxonlarni yurtimizda ilk bor chop etilgan absurd asarlar to'plami bilan tabrikladilar.

Tadbir davomida O'zbekiston davlat drama teatri ijodkorlari Fernando Arrabal asari asosida rejissyor Rasuljon Tog'ayqulov sahnalashirigan "Dala hovli" spektaklidan ko'rinish namoyish etishdi.

G.UMAROVA

MUTOLAA

Taniqli tarixchi, arxivshunos Sirojiddin Ahmadning navbatdagi "Solihibek dodxoh – millat qahramoni" kitobi ko'hna Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmida sodir bo'lgan o'ta murakkab tarixiy voqealarga, xalqimiz orasidan yetishib chiqqan millat qahramonlarning siyosiy-ijtimoiy, harbiy faoliyatiga, ularning yurtni himoya qilishga yo'naltirilgan kurashiga bag'ishlanganligi bilan alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Mualif davrning qarama-qarshiliklarga to'la, ziddiyatlari jihatlarini yaxshi bilishi, tarixiy, rasmiy manballardan, chor hukumatining davriy nashrlari va axborotnomalaridan, shuningdek, predmetga taalluqli ilmiy tadqiqotlardan puxta xabarligi, eng muhim ularga tanqidiy yondashgani, sayohatchilarining esdaliklaridan unumli foydalanishi mavzuni har tomonlama chuqur, atroficha hamda vazmin holatda yoritishida qo'l kelgan.

Olim chor Rossiysi istilosiga qarshi 1864-65-yillarda Toshkent mudofaasini tashkil qilishda shahar aholisini safarbar etgan mulla Solihbek dodxoh (1805–1868) va uning atrofida birlashgan maslakdoshlari, millatparvar vatandoshlarimizning shonli faoliyatini birlamchi manbalar, xususan, bu voqealarning shohidi bo'lgan mulla Solihbek qori Toshkandining "Tarixi jadidiy Toshkand" va boshqa tarixiy asarlarga, rus davriy matbuotida chop bo'lgan rasmiy axborotnomalarga tayanib tarixiy voqealikni haqqoniy etiradi. Tadqiqotchi Solihbekni o'z davrining taniqli, elparvar kishilaridan Qozoqboyib yodroxh oilasida tavallud topgani, dastlab Toshkenda, keyinchalik esa Buxoro madrasalarining birida ta'limg olib kelganidan keyin: "Oradan bir yilden ortiq vaqt o'tgach, Qo'qon taxtida o'tirgan Sheraxon "muboraknomasi" yuborib, poytaxtga, maslahatchi sifatida taklif etadi" deb yozadi. U bir muddat xon saroyida xizmat qilgandan so'ng yorliq bilan Toshkentga qaytib faoliyatini davom etiradi. Dodxoh xonlikning vakolatlari vakili sifatidagi butun faoliyatini el-ulusning tinchligini saqlashga, xalq manfaatini himoya etishga, adulatni barqaror va bardavom qilishga qaratganini olim tarixiy manbalaridan, shuningdek, zamondoshlarining xotiralaridan kelib chiqib atroficha bayon etadi. Masalan, xonlikdagi begaror vaziyat, amaldorlararo ixtiolar, xonlarning tez-tez almashishi bular barchasi aholini holdan toydirgan, iqtisodiyotni izdan

MILLATPARVAR



chiqargan: "Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, xonlik poytaxtida siyosiy vaziyat barqaror emasligi sababli va uning ikkinchi yirik poytaxt bo'lgan Toshkentda savdogarlar, zodagonlar va amaldorlar o'tasida turli-tuman fitnalar avj o'lgani tufayli shahar taraqqiyoti va tinchligiga ma'lum ma'noda katta zarar keltirilgan, xalq osudaligi buzilgan. Solihbek va ukasi Yo'doshbek Toshkent shahrini ana shu fitnadan qutqarmoqchi bo'lishgan".

Mana shunday murakkab sharoitda ish ko'rgan Solihbek dodxoh mudoldan kelayotgan xavfni da nozik ilg'agan, uni imkon qadar bartaraf etish, yurt boyonlarining boshini qovushtirish, ular o'tasidagi shaxsiy kina-adovatni oradan ko'tarish, xalq og'irini yengil qilish va osyoishitaligini saqlash payida bo'lган. Bundan tashqari, uzoqni ko'ra o'lgan Solihbek dodxoh va uning maslakdoshlari chor Rossiysi bosqini arafasida shaharni mudofaa qilish maqsadida qardosh-qo'shni mamlikatlarga harbiy-siyosiy yordam so'rab elchilar yuborishgan: "Kezi kelganda yana bir dalilni eslab o'tish kerak. Mulla Muhammad Yunus Toib xatti-harakati, Solihbek dodxoh va boshqalar bilan qilingan mashvarah tufayli Alimquli eshil, og'asi Turkiya va boshqa joylarga elchi jo'natadi".

Shunday tahlikali, og'ir bir sharoidta burnining tagidani narini ko'maydigan, faqat o'z shaxsiy manfaatini ko'zlaydigan mahalliy savdogarlardan uch yuz nafari "...shaharni tashlab, Chimkentga ruslar panohiga yo'l oladi". Eslatib o'tamiz, bu vaqtida Chimkent zabt etilgan edi. Ularning ayrimlari esa ruslar bilan oskhora yoxud xufyonra tarzda "yaqindan hamkorlik" ham o'nataadi. Tadqiqotchi bu kabi tarixiy faktlar, dalillar bilan o'tmishning ziddiyatlari, qarama-qarshiliklarga to'la tomonlarini, noxush holatlarni obyektiv, xolisona yoritadi. Bunday yondashuv kitobning ilmiy qiyomatini oshiradi. Bugun unib-o'sib kelayotgan

yosh avlod tarixiy haqiqatni qanday bo'lishidan qat'i nazar butun murakkabligi bilan xolisona, ro'yrost bilishi shart. Mana shundagina uning moziy haqidagi tasavvurlari to'liq bo'ladi, undan saboq oladi, tanqidiy idrok etidi hamda bugungi kunlarning qadriga yetadi va kelajakni aniq belgilaydi. O'tgan kunlar haqida so'z yuritganda o'tkinchi, siyosiy konyunktura talablaridan kelib chiqib qalam tebratish hech qachon o'zini oqlamagan.

Kitobning "Qal'adorlik va surgun" faslidasi shahar mudofaasini tashkil etishda Solihbek dodxoh boshqil aholini barcha qatlamlari safarbar qilingani, yuzlab harbiy inshootlar qurilgani, shuningdek, har bir daha kishilarining vazifasi aniq belgilanganligi xususida so'z boradi. Tashkiliy ishlarni amalga oshirgan Solihbek dodxoh yana bir o'ta muhim narsaga qo'l uradiki, bu qoshinning ruhiy va jangovar qobiliyatini ko'tarishda, hamjihatlikni ta'minlashda, dushmanga qarshi kurashda samarol yordam bergan:

"Shundan so'ng Mulla Solihbek dodxohning maslahati bilan hajmi 17 mm.ga 8 mm qalin qog'ozdan "Zulfiqor" tasviri tushirilgan va qilichning dasta va tig' qismiga to'rt xalifa nomi va muborak so'zlar bitilgan, ko'krak nishoni ta'sis etiladi. Bu nishon jang oldidan har bir jangchiga beriladi va xalq orasida tarqatiladi". Tadqiqotchi ayni nishonning suratini kitobga kiritgan.

Toshkent qamali 1865-yilning 27-aprelidan 17-iyuniga qadar davom etadi. Harbiy va son jihatdan dashman kuchliroq bo'lishiga qaramay, shahar aholisi qattiq qarshilik ko'satqan. Mualif Sirojiddin Ahmad buni tarixchi Muhammad Umar Umidiy Marg'oniyyining "Tarixchayi Turoni" asaridan keltirilgan quydagi ko'chirma bilan isbotlaydi: "...har kun fuqaroyi Toshkand kuffor birla urushish jangbozlik ko'rguzur edi. Mulla Solihbek oxund shahar fuqarosig'a bosh bo'lub, jang-u jadalga targ'ib

qilib ko'shish aylar edi". Shuningdek, tadqiqotchi shahar aholisi tomonidan ko'satilgan qarshilikni rus qo'shnlari qomondoni ham rasman tan olgani haqidagi hujjatni keltiradi: "Toshkent shahrida jangovar holat 42 kun davom etdi. General-major M.Chernyayev Orenburg okrug qo'shnlari qo'mondoni Krianovskiya 1865-yil 7-iyulda yo'llagan raportida Toshkentning mislisiz darajada shiddat bilan himoya qilinishi O'rta Osiyoda sira ko'rilmagan bo'lub, bu ushbu shaharining tarixiy hayotiy hamda amirдан yordam kelishiga umidvorligi bilan izohlanadi".

Ming afsuski, aholi intiqliq bilan kutgan yordam kelmaydi. Ustiga ustak, o'zlarining tor shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi Buxoro hukmdori amir Muzaffar hamda Qo'qon xoni Xudoyorxon butun harbiy kuchlarni bir nuqtaga jamlash orniiga o'zaro to'qnashuvlar bilan band bo'ladi. Boz ustiga, yurt egasi bo'lmish bu hukmdorlar raqib bilan xufiyona yozishmalar olib boradi. Tadqiqotchi bu haqda kuyunib shunday yozadi: "Shuni ochiq aytilish kerakki, Chernyayevning g'alabasidan Xudoyorxonning o'zi ham manfaatdor edi. U Chernyayev yordamida bir tomonidan qirg'iz-qipchoq fitnalar, ikkinchi tomonidan amir Muzaffar qo'lidan taxtni tortib olmoqchi bo'idi; o'g'li Ibni Yaminbek orqali zimdan yozishmalar olib bordi".

Olim kitobda Xudoyorxon tomonidan Chernyayevga yozilgan maktabuning fotonusxasini keltirib, uni joriy alifboga tabdil ham qilgan. Tadqiqotchi Sirojiddin Ahmad mahalliy tarixchi-larning asarlariga asoslanib, voqealarning ishtiroychilarining shohidligidan kelib chiqib, rus rasmiy matbuoti nashrlaridan tanqidiy foydalangan holda "Toshkent o'z ixtiyori bilan Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shildi" degan soxta, biroq bir qadar ommalashib ulgurgan mulohazani keskin rad etadi hamda qator dalillarni keltiradi:

"Chernyayev shaharga bostirib kirgina qaramay, ko'chalarda to'it kun

qattiq janglar davom etayotganini ko'rib, o'zi kechroq sulh tuzishni taklif etadi" deb yozadi.

Qizig'i shundaki, uzoq davom etgan tortishuvlardan keyin tuzilgan tinchlik shartnomasining nusxasi poytaxt Peterburgga yuborilganda "bu shartnomaga imperiya manfaatlariga mos kelmaydi" degan mazmunda javob olingan. Uning qayta "tahrir" qilingan nusxasiga esa bizning ahididan qaytmaydigan, lafzida turadigan millatparvar bobolarimiz qo'l qoymaydilar. Gap shundaki, birinchan, shartnomada tuzilgan zahoti xalqqa o'qib eshitirilgan, ikkinchi dan, "yangi" shartnomaga millatimizning uzoq muddatli manafaatlariga butunlay zid edi. Aynan shu sababli: "Chernyayevning tabibi Mulla Solihbek va uning tarafdarlari tomonidan jiddiy suratda qat'iy rad etildi". Bundan g'azablangan Chernyayev Dodxoh va uning sakkiz nafar maslakdoshini surgn qiladi.

Ushbu voqealarning tafsiloti tirik shohid Mulla Solihxo'ja qorining forsiy tilda bitilgan "Tarixi jadidiy Toshkand" asarida batafsil yoritilgan. Afsuski, bu muhim manba qator tadqiqotlar obyekti bo'lganiga qaramay, hoziriga qadar to'liq nashr etilgan emas. Asarni o'zbek tiliga to'liq tarjima qilib, zarur sharh, ilmiy izohlar bilan chop etish moziyning ko'plab qorong'i nuqtalarini oydinlashtirishi, yurtparvar bobolarimizning bugungi yoshlarga ibrat bo'lgulig nurlari hayot yo'llini butun murakkabligi bilan ko'satib berishi mumkin.

Noiloj qolgan general Chernyayev shahar boyonlariga zug'um qilib soxta shartnomaga qo'l qo'yib tarqatishni buyuradi. Qizig'i shundaki, siyosiy hujjatni aylangan soxta shartnomaga 1927-yili "Yer yuzi" jurnalida chop qilingan. Tadqiqotchi hujjatni joriy alifboga to'liq tabdil qilib kitobga kiritgan.

Qisqasi, tadqiqot moziy bilan bugungi bog'laydi, uning ijobji va salbiy tomonlarini haqqoniy yoritadi, tarixdan saboq olishga chaqiradi. Eng muhim, vatan uchun jon fido qilgan bobolarimizning yozg'ligini yozg'ligini bizga eslatilgan turadi.

Abdurusul ESHONBOBOYEV, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi ilmiy xodimi



TADQIQOT


"ALDANGAN KUTILGANLIK"

lingvopoetikasiga chizgilar

Har qanday san'at asarida, xususan, badiiy asarda voqeanning ham, undagi lisoniy tasvirning ham kutilmaganligi, favquloddaligi, ohriligi mutlaqo ayricha ahamiyatga molik, mazkur sifatlarga sohiblik badiiy matn rasoligining azaliy o'ichovlaridan biri bo'lib kelgan.

Dunyo tilshunosligida "aldangan kutilganlik effekti" (inglizcha – "defeated expectancy") yoki "amalga oshmagan bashorat" degan hodisa ko'pdan beri tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. Mazkur termin dastlab atoqli tilshunos va poetikashunos Roman Yakobson tononidan fanga olib kirlgan.

O'zbek tilidagi raso va rango-rang badiiy matnlarda bunday aldangan kutilganlik hodisasingin go'zal namunalari bisyor. Masalan, hassos so'z san'atkori Cho'lpionning "Kecha va kunduz" romanidan olingen quyidagi parchaga e'tibor qilaylik, undagi sinestetik metaforasi asosidagi g'ayri-odatiy birikmada voqelangan anomaliya – aldangan kutilganlikning badiiy-estetik salmog'idan hayrat va huzur tuymaslikning iloji yo'q: "Hammaning ko'zi uning og'ziga tikilgan edi, undan keyin hamma ko'zlar birdaniga mingboshi tomonga burlib, uning og'ziga osildilar. Ko'plar og'izlari bilan ham tinglardilar". Tovushning og'iz bilan emas, qulqoq bilan tinglanishi barchaga



birday ma'lum. Lekin til mantig'i va jamiyatning anglash taomiliga tamoman ters holda Cho'lpion buning aksi mazmunida g'ayriodatiy birikma tuzgan va yangi soliq xabari ta'siridagi hayronlikdan og'zi ochilib, izoh kutayotgan omi-yu benavo olomonning oniy holating real rasmini o'quvchi ko'zi o'ngida gavdalantirgan. Og'iz bilan tinglamoq birikmasi mazmunida voqelangan aldangan kutilganlikni ilg'amaslikning imkonи yo'q, shubhasizki, u ekspressiyadan iborat badiiy-estetik maqsadning ro'yobi uchun xizmat qilgan. Og'iz bilan so'z shakli o'quvchi idrokida yemoq, gapirmoq, tishlamoq kabi so'zlarni taqozo qilishi, mazkur so'z shaklini eshitgan o'quvchi aynan shu so'zlarni kutishi tabii, ammo matnda uning kutishi "aldanadi", bu holat uning diqqatini matndagi ayni o'rinda uzoqroq tutishga majbur qiladi. Bu esa "aldangan kutilganlik" sezgisining badiiy-estetik salmog'iga kuch beradi. Keltirilgan parchadagi "ko'plar og'izlari bilan ham tinglardilar" jumlasining hori, ohangi va tasvir tarangligi ta'minotining tom sinoati aslida ana shu o'rindagi aldangan kutilganlik hodisasiga ko'radir.

Aldangan kutilganlik badiiy matnda ayrim so'z va birlilikning ko'chma ma'noda, ayniqsa, obrazli ko'chma ma'noda qo'llanishida ham o'ziga xos asos bo'ladi. O'tkir so'z sezgisini sohibi Erkin A'zamning "Shoirning to'yi" ciassasida obrazli ko'chma ma'noning betakror namunalarini ko'rish mumkin, masalan: "(Mafkuronxonimning) xushro'yo'xushbichim qiz-juvonlarga talpinishi odamni biroz o'yantiradi. Shu rag'bat sababmikan, Ozod Sharq ayolining rutbasini ko'tarish bahona, ko'p xotinni turli-tuman lavozimlarga "ebik

tashladi". Tabiiyki, lavozimlarga tayinlanadi, birikmadagi birinchi so'zdan keyin o'quvching "kutgani" ayni shu tayinlandi so'zi bo'ladi, ammo matndamazkut kutilganlikning o'laroq ekip tashladi so'zi qo'llangan, ya'ni o'quvching mo'liali "aldangan", aldangan

bo'ylab kavkazchasiga yo'rg'alab ketadi, goh qo'llarini ikki yonga silijitgancha kiftlarini qimirlatib, "Ha-a, hu-ul!" deya qiyqiradi, hayqiradi, sakraydi, iringishlaydi: goh jilmayadi, goh hazilga qovog'ini uyub oladi: duch kelgan qizni raqsga tortadi, ajabki,

badiiy matndagi badiiy-estetik salmog'i, lingvopoetik ta'kidi shunchalik sezilarli bo'ladi. Cho'lpionning "Kecha va kunduz" idagi mana bujumlagae'e'tiborberaylik: "Kulmasdanchidab bo'lmaydigan maqomlarda u (Razzoq so'fi) ham kuladi, lekin u kulish – kasal odamning kulishiday og'ir, bir xil sovuq hazillarday malol keltiruvchi, yolg'on xushomadlarday ko'ngilga uruvchi bo'lardi". Ko'rinib turganiday, o'quvchi rost kulgini kutadi, matnda bunday kulgiga tamoman ters qiyofadagi soxtadan soxta kulgiga ro'baro' bo'ladi, alaloqibat uning kutishi "aldanadi", bu yolg'on kulgining ich-u tashi o'tkir o'xshatishlarda betakror bir tarzda gavdalantirilan.

Ba'zan badiiy matnda kutilganlik to'g'ridan to'g'ri, ochiq ifodalanadi, undan keyin ayni kutilishdan mantiqan kelib chiqishi lozim bo'lgan voqe sodir bo'lmaydi, kutilganlik aldanadi. Bunday hollarda aldangan kutilganlik yanada kuchli qabariq poetik ta'kid bilan yakinadi. Masalan, taniqli adib Murod Muhammad Do'strining "Dasht-u dalalarda" hikoyasidagi quyidagi ikki jumla tarkibidagi lekin va ammo bog'lovchilari ana shunday ham mantiqiy-semantik, ham poetik-tasviriy aldangan kutilganliklarni ta'kidlab kelgan: "Xadicha bir sidra kiyimini tugun qilib, poygakda qotib turdi, bechora biror sado chiqishini kutdi, lekin Polvon er bo'lib bir narsa demadi. Xadicha dahiliza chiqib yana birpas turdi, hovliga chiqib hovlida turdi, ilindi, qaytarib olar-ku, dedi, ammo Polvon teskar-to'ng bo'lib yotaverdi..."

Aldangan kutilganlik ta'kidi zidlovchi bog'lovchilari qo'shma gapning ikkinci qismini zidlovchi bog'lovchi bilan birga alohida gap maqomida qo'llaganda ham yanada ta'kid oladi, bunday qo'llanishlar badiiy matnlarda ko'p uchraydi. Masalan, Cho'lpionning "Kecha va kunduz" idan olingen quyidagi parchalarda buni ko'rish mumkin: "Bolasi yo'qlar bolaga qiziqadi. Lekin bolaning "balo" bo'lgani ham bor... Mingboshining yer-suvi



shu qadar ko'pki, hisobini o'zi ham bilmaydi. Lekin Xudo bu sevgili quliga davlatni ikki o'slab uzatsa-da, farzand to'g'risida biroz o'ksitib qo'yan".

Ba'zan yozuvchining o'ziga xos mahorati bilan badiiy matnda birgina zidlovchi bog'lovchining o'zi bilan ham bayon qilingan fikra tamoman zid bo'lgan voqealar silsilasining jamiga bilvosita ishora qilinishi mumkin. Mohir nosir Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasidagi mana bu parchaga e'tibor qilaylik: "O'tgan hafta tunga yaqin uymiga telefon bo'ldi... Bir hamshaharimizning tog'asi vafot etibdi, ertalab chiqarishmoqchi, iloji bo'lsa, shu gapni jiyani yetkazishim kerak ekan. "Bemahalda sizni bezovta qildik-da, og'ajon, ovora bo'lasiz-da", deb qayta-qayta uzr so'rashdi, "lloyo bir o'g'lingiz o'nta bo'sin, baraka toping", deya rosa alqashdi. Ishdan qattiq charchab kelgan edim, o'zimcha mulohaza yuritalim: "Jiyaning uyi shaharning bir chetida! Ertalab chiqarisharkan, bugun borib aytdim nima-yu saharda ishxonasiga telefon qilib qo'ydim nima – baribir janozaga yetib borolmaydi". Yetib borolmasligi aniq edi, lekin..." Shundan keyin quyidagi xatboshi keladi: "Ana shunday, mening uymida telefon bor! Men ishdan charchab kelaman! Nega bunday, Amazon? O'nimda sen bo'lganining nima qilarding?" Qahramonning ana shu o'y-kechinmalari bilan tanishgach, "lekin" ga



Nizomiddin MAHMUDOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

yuklangan uning o'z vaqtida qilmagan ishidan keyincha tasavvurotida tiklangan afsusli yukening salmoqli og'rig'i bo'yicha anglanadi, shu birgina bog'lovchi, yordamchi so'z deyiladigan unsurning tasvir va ta'sir qamrovining bu qadar kengligidan hayrat va huzur tuyasiz, mustaqil ma'no tashimaydi deb qaraladigan so'zchaning "Kichkina demang bizni..." deyayotganini eshitganday bo'lasiz.

Cho'lpionning "Kecha va kunduz" ida shu "kichkina" so'z mana bu tarzda kattaygan, "semirgan": "Odatda onaning ko'nglyumshoq bo'ladi. Zebining onasi – Qurvonbibi Saltidan haligi chaqiriqni eshitgandan keyin darhol rozilik berdi:

– Mayli, o'ynab, yozilib kelinglar. Qish ichi yuraklarining g'ash bo'lgandir... Yosh narsalar, - dedi. Zebi onasining beradigan javobini ilgaridan bilardi. Bu ona qizining saodatidan boshqa narsasi bilmaydir onalarдан edi. Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo'lsa, hammasini shu birgina qizi uchun istar va orzu qilardi. Lekin..."

Onaning rozilik so'zlariga bu birgina "lekin" elchib kelganidan, bechora qizlar sevinish to'qinlarini yana bir qur ko'tarishga fursat topamodilar.

Hamma jum qoldi. Har kim o'z oldida bir narsa topib shunga ko'z tikkani va u narsada Zebi – o'z otasini, Qurvonbibi – o'z erini, Salti – qovog'idan doim qor yog'ib turgan sovuq bir so'fini ko'rardi.

Zebining onasi Qurvonbibining qizi va Saltining o'ynab-yozilib kelishi uchun rozilik so'zlarining lekin bilan tugashi qizlarni birdan sergakanlishga majbur qiladi, bu lekinning alohida tugallanmagan gap maqomida turishida qo'rqnichli mazmun mujassam. Onaning so'zlariga elchib (ergashib) kelgan birgina "lekin" so'zi endi yordamchi so'z emas, balki tamoman mustaqil va "mustahkam" so'z sifatida ko'p mazmunlarni o'zida jamlaydi.

Badiiy matnda ba'zan aldangan kutilganlikli gaplar ikki gapga ajratiladi va zidlovchi bog'lovchilari ikkinchi gapning boshida emas, balki oxirda joylashtiriladi. Bunday hollarda zidlashirish, qarshilantirish mazmuni yanada keskin, kuchaygan holda ifodalanadi, ayni paytda aldangan kutilganlik effekti ham kuchli poetik ta'kid oladi. Quyidagi parchalarda bu holatni ko'rish mumkin: – Ha, mayli, surishtir! Sudrama lekin! Ha.. Mingboshi shu joyda o'zining Miryoqubga e'timodini ko'satmoq uchun uning yelkasiga urib-urib qo'yd" (Cho'lpion "Kecha va kunduz").

Og'zaki nutqda ammo va lekin zidlovchi bog'lovchilari birgalikda juft holda ham qo'llanadi, bunda zidlash, qarshilantirish munosabatlari yana ham kuchli va qabariq tarzda o'z ifodasini topadi. Badiiy matnda bunday holatlar alohida lingvopoetik qimmat kash etishi tabiy. Cho'lpionning "Kecha va kunduz" ida bunga guvoh bo'lish mumkin: "Yotig'i bilan ayt: mayli endi, vaqtini choq qilib yursa yura tursin, ammo-lekin haddini bilsin, haddini..."

Umuman, aytilish joizki, badiiy matnlarda aldangan kutilganlik hodisasi favqulodda muhim lingvopoetik qimmatga ega, uning, tabiiyki, xilma-xil namoyon bo'lish ko'rinishlari va vositalari mayjud. Ularни atroficha tadjiq va tahil qilish juda ko'plab diqqatga sazovor lingvopoetik xulosalar chiqarishga imkon beradi.



qo'yan". Anglashilib turganiday, "bepoyon o'ikam", "dunyo yo'qsillarining dohiysi", "mo'ylovkor dohiyi" perifrazalari SSSR, Lenin, Stalin nomlarining tasviriy ifodalalaridir, ularning qo'shtirnoq ichida yozilishi esa matndagi kinoyani yanada ta'kidlaydi.

Badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lmish gradatsiyada ham ko'pincha aldangan kutilganlik kuzatiladi. Masalan, quyidagi parchada buni ko'rish mumkin: "Ramazonnинг o'zi ayniqsa bayram qildi. Muzika boshanishi hamono o'rta tushib, holdan toyguncha o'ynadi. O'yini ham o'ziga o'xshagan edi: goh tizzalariga shapatilay-shapatilay davra



MILLAT FIDOVYLARI

Gazetxonlarimizga yaxshi ma'lum, biz jadidlik harakati ishtirokchisi, qatag'on qurbanini bo'lgan millat oydinlari haqida ma'lumot, xotiralar, surat va arxiv hujjatlari, yodnomalar, ularning ijodiy merosidan namunalar taqqid etishlarini va bu bilan tariximizning qorong'i sahifalariga aniqlik kiritishda ko'maklashishlarini so'rav murojaat qilgan edik.


Tabiiyi, savobtalab va ma'rifatparvar yurdoshlarimiz bu so'rovimizni javobsiz qoldirmadi. Kunda-kununa tahririyatimizga shaxsan tashrif buyurib, ota-bobolari, ona-momolarining millatsevar faoliyati va ayanchli qismati haqida rang-barang hamda qimmatli ma'lumotlarni taqdim etishmoqda. Imkonдан foydalanih, ularga qadri mushtariyalarimiz nomidan ham minnatdorlik bildiramiz.

Yaqinda ana shunday fidoyi yurdoshlarimizden biri Romida aya Sodiqova otasi – pedagog, lingvist va fan doktori Safo Zufarovning o'z qo'lli bilan yozgan esdaliklaridan bir parchani taqdim etdi. Ibratli bu hayotiy hikoyani Siz aziz o'quvchilarga havola etmoqdamiz.

TAHRIRIYATDAN

...Og'zim oshga yetib, ilmiy izlanishlarim o'z mahsulini bera boshlagan palla – 1934–1936-yillarda Ozbekiston SSR Fan Komitei qoshidagi Pushkin nomli Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutida hamda O'zSSR Markazi Jiroq'omi qoshidagi O'zbekiston Yangi alifbo va terminologiya komitetida ilmiy xodim sifatida zavqlanib ishlardim.

Ustozlarim Otajon Hoshim, Y.D.Polivanov, G'ozzi Olim Yunusov, Fitrat, hamkasblari – I.A.Batmanov, Qayum Ramazon, Elbek, Shokirjon Rahimi, Sanjar Siddiq, V.V.Remetov, Sobirjon Ibrohimov, T.Ibrohim, Buyuk Karim, Olim Sharofiddinovlar bilan birga ishlagan kezlarim o'zbek adabiyoti va tilga doir qiziqarli, serzman munuhokama va munozaralar bo'lardi. U kunlarning mahsuli ya jilosi o'sha davrdagi vaqtli va



doimiy matbuot sahifalarida aks etgan.

Shunday serzavq kunlarning birida – 1936-yil 29-mart kuni dabdurusdan boshim ustida mo'maqaldoq chaqnab, hayotimni ostin-ustun qilib yubordi. Ilmdan boshqa muddaosi bo'lmagan, xalqning ma'naviyatini boyitish-nigina ko'zlagan, kecha-yu kunduz kitob titish, tadqiqot bilan band bo'lgan mendek ilmi tolibni baayni butun boshli sovet tuzumiga xavf tug'dirayotgan o'ta jiddiy jinojatchi sifatida O'zSSRning siyosiy idorasini kishanband qilib, so'roq va qiyonoqqa tutdi. O'sha davrda urf bo'lgan 68-modda – aksilinqilobi harakat ishtirokchisi tamg'asini bosib, ozodlikdan mahrum qilishdi.

Men rosa besh yil lagerda mehnat qilib, 1941-yil 30-mart kuni chiqib keldim. Avval Yangi-yo'l shahar maorifida metodist, so'ng Forish tumanidagi Maksim Gorkiy nomli o'rta maktabda til va adabiyot o'qituvchisi va direktor sifatida, 1943-yil dekabridan 1945-yil 22-iyungacha Samarqand davlat universiteti va Ayniy nomli Pedagogika institutida katta o'qituvchi bo'lib ishladim.

Sidqidildan o'z vazifamni bajarishimga qaramay, doimo shubha ostida ekanimni, har qadamim kuzatilib turganini sezar edim. Ma'rifat tarqatish zavqini chin ziyoli yaxshi biladi. Xayriyatki, ana shu tole menga ham nasib etgandi. Ilm qadrini bilgan olim do'stlarim, talabalarim mendan hamisha minnatdor ekanligi taskin beradi o'sha paytlarda.

Nomzodlik ishlarini bajarib, himoyaga yaqin qolganda badnom bo'lib, "xalq dushmanlari" qatoriga kiritilgan bo'lsam-da, hech qachon umidsizlanmadim. Chunki ko'ngil oq, maqsad – yurtimga halol xizmat qilish, o'zni ba'zi do'stlar oldida "oqlash" edi. Biroq yana ham dahshatli kunlar oldinda turganini hali bilmasdim.

Urushdagagi g'alabadan so'ng yana "qama-qama" vasvasasi zo'rayib ketdi. Keyin ma'lum bo'lischicha, Beriya boshliq jazo organlari 1936-37-yillar davomida chala qolgan ishlarni, isbot qilinmay yoki siyosiy ayblar bilan qoralanib, bo'shab ketgan ayrim ko'zga ko'ringan "shubhal" odamlarni bivarakayiga qamashga tushgan edan.

Meni ham 1945-yil 22-iyun kuni ikkinchi marotaba Samarqandda hibsga olishdi. Da'vo yana o'sha: "Sen aksilinqilobi tashkilot a'zosisan. Buni isbotlaymiz, tegishli jazo beramiz".

Bu ayblarni inkor qildim. Boshdan-oyoq yana hamma o'tgan gaplar takrorlanib so'raldi. To'rt-besh oy Samarqand oblast Davlat xavfsizligi tergovida, so'ng Toshkentda O'zSSR Davlat xavfsizligi ixtiyorida, 1947-yil sentyabr oylariga qadar ichki turmada – tergovda bo'ldim.

Sud qila olmadilar. Biroq tegishli rasmiyatchilik yo'li bilan Moskvadan Beriya boshliq "Ochoboe sovetschiye" orqali baribir 10 yil ozodlikdan mahrum etish hukmini chiqarishdi. Shu bilan etap, lager hayoti boshlanib ketdi.

Irkutsk shahri yaqinidagi "Kitoy-lag" sistemasidagi 2-lagerda ishlab turgan kezlarim – 1952-yil 5-okeytabyr kuni yana meni Toshkentga, O'zSSR Davlat xavfsizligi mahkamasiga qayta so'roqqa olib kelishdi.

O'sha tergovchilar, o'sha da'volar. Ammo da'vo ancha jiddiy, ayblow balandparvoz. "Bizni aldar, qo'limizdan siliq chiqib ketgansan. Endi hammasi ravshan, sen aniq aksilinqilobchi – xalq dushmanisan. Bizza yetarlicha ma'lumotlar, tegishli hujjatlar bor! Yaxshilikcha

o'zing iqror bo'lib, hammasini aytil ber! Endi bizni alday olmaysan!"

Bu ayblovlar butunlay yeto bo'l-gani uchun men ularni dadil inkor qilardim. Da'volar quruq tuhamat bo'lgani bois har qanday malomat va tazyiqlarga bardosh berdim. Ko'p vatanparvar kishilardan sun'iy ravishda xalq dushmani yasashga o'rganib qolgan o'sha kezdagi "fidoyi" yuristlar natija ko'rsatish uchun har qanday ig'vogardon foydalishga tayyor edilar. Men bilan ham xuddi shunday bo'ldi. Da'vonis isbotlashga yollangan ig'vogar – bundan bir yil burun siyosiy ayblar bilan uch marotabaga qamalgan bir razil kishi katta siyosiy jinoyatlarni ochib berish va'dasi bilan uzoq yerdagi og'ir ish lageridan Toshkentga, O'zSSR xavfsizligi ixtiyoriga kelib olsigan. Keyin ma'lum bo'lischicha, u tergov xodimlarini laqillatib, tuhamat yo'li bilan bo'lsa ham yangi ish topmoqchi, shu orqali raqiblaridan, jumladan, bir paytlar uni ishga olib qilish uchun, o'zbekona oriyat va sha'n uchun o'sha marhumlarning sho'ring qurg'ur umr yo'doshlari, farzandlari yillab so'rov xatlariga javob kutib, temir darvoza idoralar ostonasida sarg'ayib, xor bo'lgani fojaning o'zidan-da fojaliroq edi.

Kunlarning birida o'sha tuhmatchi domlani uchratib qoldim. Bostirib kelgan g'azabimni zo'rg'a jilovlab, unga so'z qotdim:

– Nega yolg'on gaplar to'qib biza – O'ybekka, Subutoy Dolimovga, yana shuncha odamga tuhmat qildingiz?

– Men atay qildim, – dedi u. – Siyosiy kurashda diplomatiya shunday bo'ladi. Bunday qilmasam, meni o'dirib yuborishardi.

– Bundan ko'ra o'lim yaxshi emasmi? Endi Oybekning yuziga qanday qaraysiz?

– Oybek ham Sovet tuzumini yaxshiroq bilsin deb jo'rttaga girdobga tortgandim. Sen ishni buzding, qo'rqqolik qilding, inkor etding. Agar tasdiqlaganingda, Oybek ham qamalgan bo'lardi.

Menunga boshqa hech narsa demadim. Lekin ko'nglimdan o'tgani bo'ldi: yil o'tmay, birpaslikka yo'liqib, uzoq yillar bir joyda tirik murda bo'lib it azobida yotdi.

Safu ZUFAROV,

Toshkent. 1988-yil avgust

Boshlanish 1-sahifada.

Mashhur sayyoh Vamberi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi muhitni turkiy adabiyotning "yangi davri", qayta ko'tarilish zamoni, deb hisoblaydi. Adabiy jarayonga mos: "...turkiy tilli xalqlarning milliy ilhom parisi birmuncha harakatga" kela boshlaganini kuzatadi. Shu adabiy muhitning iste'dodli shoirlaridan xorazmlik Munis va qo'qonlik Amir Umarxon sayyoh olimning nazariga tushadi.

Haqiqatan ham Amir Umarxon zamonda Qo'qon adabiy muhitidan juda ko'p shoir yetishib chiqqan edi. Fazliy Namangoniyning "Majmuway shioiron" tazkirasida ularning oltmishdan ko'prog'i zikr etiladi. Amiriyning shaxsan o'zi Qo'qon adabiy muhitiga homiylik qildi, adabiy bahs, suhbat va mushoiralar uyushtirdi. Ayni choqda Vamberi Amiriyning shajarotni temuriylarga borib taqalishini, Norbo'tabiyining uchinchi o'g'li bo'lgani, taxtga o'tirgach, xonlik hududini kengaytirganini yozadi: "U butun O'rta Osiyoda yuksak hurmat qozondi va hatto "Amir al-muslimin" (Musulmonlar amiri) unvoniga sazovor bo'ldi. 1821-yil xalqini azobga qoldirib va yig'latib vafot etdi. Shu taniqli fotih xon bo'sh vaqtini badiy ijdoga bag'ishladi va she'rlarini jamlab "Devon" tuzdi". Bu ma'lumotlarni Herman Vamberi shoir "Devon"ining muqaddimasidan oladi. Mamlakatni adolat bilan boshqargani, xalq hayotini obod etgani, bor kuch-g'ayratini istibod va o'zaro nizolarni bartaraf qilish uchun sarflagan va ilm-fan rivojiga, madrasalar qurilishiga jiddiy qaragani kabi biqancha ijtimoiy faktorlarini sanaydi. Shuningdek, Amiriyning ko'ngil odami ekaniga, "Umarxon huzur-halovatni ilhom parilaridan izlagani" ga urg'u berdi. "U g'azallarini ko'ngil kazinasidan olib saroyda to'plangan mushoira ahliga ko'satdi; she'riyat bilimdonlar ularni gavhar deb baholashdi. Agar ana shu gavharlar darhol bir shodaga terilmasa edi, oqibat shafqatsiz kuz shamolida qolgan atirgulardan kabi titlib xazon bo'lar edi". She'rlarga berilayotgan bunday ta'rifda qaysidir ma'noda muallifning shoirona nuqtayi nazari, ifodasi ham seziladi.

HERMAN VAMBERI va IKKI O'ZBEK SHOIRI



Herman Vamberi



Munis



Amiriy

Herman Vamberi bugun bizga ma'lum ko'plab ma'lumotlarni Yevropa ilm ahliiga Amiriyelek ulkan bir adabiy shaxsiyatni tanishit niyatida bir sidra takrorlaydi. Ularning ayrimlari o'zbek adabiyoti tarixida yozilganidan farqli. Masalan, o'zbek adabiyotshunoslari yozishicha, Umarxon 1787-yili Qo'qona tug'iladi, 1810-yilda taxtga o'tiradi, 1822-yili vafot etadi. Barcha ilmiy-adabiy manbalarda bular aynan qayd qilinadi (Po'latxon Qayumi). "Tazkirayi Qayumi". 1-jild). Biroq Herman Vamberi o'z maqolasida Amiriyning taxtga o'tirgan yilini 1812 ya vafotini 1821-yil tarzida ko'satgan. Sanalardagi bunday juz'iy farqlar ham yo'q emas.

Herman Vamberi o'z tadqiqoti va tarjimasi uchun qaysi manbalarni asos qilib olsani ham muhim, albatta. Masalan, o'azzallar tarjimasi uchun u shoirning 1883-yili Istanbulda bosilgan "Devon"idan foydalaniadi. Bu kitob esa buxorolik shayx Sulaymon ismli kishining sa'y-harakati bilan nashr qilingan ekan.

Amiriying joriy yozuvimizga o'girilib, turli yillarda o'quvchilarga taqdim etilgan ikkita kitobidan xabarim bor. Ular bilan Herman

Vamberi foydalangan nusxa matnlari taqqoslanganida ayrim tovush, so'z va so'z birikmalarida farqlar borligi kuzatildi. Bir misol. Bizzagi nashrlarda shoirning bir bayti:

"Jilva ber gulshan aro,

qaddingkim, u mumtoz erur,

Bir niholin qomating

birla barobar ko'rmadim",

– shaklida berilsa, ayni misralar Vamberi foydalangan nusxada:

"Jilvai sarv qading gulshan

aro mumtoz erur.

Bir niholi qomating

birla barobar ko'rmadim"

– tarzida berilgan.

Amiriying qayta nashrlarida zarur bo'lganida Istanbul nusxasidan ham foydalishni matnlardan mukammalligi uchun yordam bersa kerak.

Ikkinchi jihatdan, Herman Vamberi Shermuhammad Munisning tarjimasi holiga oid ma'lumotlarni o'sha mahalda topa olmaydi. Shuning uchun ham u: "Xiva xonligining qayerida va qachon tug'ilgani haqida mavjud devonda hech qanday ma'lumot yo'q. Ammo uni Xivada asosan

Mirob deb atashgan. O'z ijodiy faoliyati davomida bitilgan she'rlari davring bir qator shoirlarini bilan birga sanab o'tiladi", deb umumiy tarzda yozadi. Vamberi fikricha, Munisning "Aynan Umarxon bilan bir qatorda ko'riliши "Devoni Munis" asariga bog'liqidir. Sababi "Devoni Amiri"da Umarxon va "Devoni Munis"da Munis asosan Navoiy she'riyatiqa xos tamoyillarga sadiq qolgan holda turkiy til so'z boyligidan foydalaniadi. Faqat Umarxon qo'roncha va Munis xorazmcha dialektagi so'zlarni qo'llashadi". Bu ham Vamberining har ikki geografik hudud badiy asarlar tiliga xos individual foydalangan masala sanaladi.

Albatta, Vamberi Amiri va Munis ijodiy merosini nuktadon adabiyotshunos sifatida badiy jihatdan chuqur talqin etmaydi. Olim bu vazifani ko'zlagan ham emas. U adabiy davrni tafsillaydi va har ikki shoir hamda asarlar to'g'risida umumiy fikr beradi.

Bugungi adabiy jamoatchilik, amiriyyunos va munisshunos olmlar uchun muhim bir gap shuki, Herman Vamberi o'z maqolasasi matni davomida Amiriyning o'n uchta, Munisning bir nechta g'azali va yirik hajmli "Xoram", "Muhammad Rahimxon", "Xiva"ga bag'ishlangan qasidalarining nemis tiliga tarjimasini o'zbek mumtoz yozuvidagi aslyatini bilan birga e'lon etadi.

Herman Vamberi erkin o'girgan bo'sherlari mazmuni olmon tilida qay darajada o'z ifodasini topgani, tarjimon retsepsiysi, anglamli va mahorati alohida qiyosiy o'rganiladigan masala sanaladi.

Muhibi, Herman Vamberining ikki mumtoz o'zbek shoiri – Munis va Amiriy to'g'risida muxtasar ma'lumotlar yozgani, asarlaridan namunalar tarjima qilib, o'z zamonda Yevropa ma'rifat ahliiga yetkazgani tahsinga loyiq. Kelajakda o'zbek adabiyoti, o'zbek-mojar adabiy aloqalari, deylik, Amiriy va Munis kabi mumtoz adiblari asarlarini dunyoga tashishga kirishadigan mutaxassislar bu soha debobasida turgan mojar sayyohi Herman Vamberining ilmiy-amaliy xizmatlarini inobatga olishlari kerak bo'ladi, albatta.

Bahodir KARIM,
professor

XOTIRA AZIZ

QATAG'ON
QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Shermat qori Toshmatov – 1900-yilida Andijon shahrida tug'ilgan. Bosmachilik harakatining faol qatnashchisi va "Milliy ittihad" aksilinqilobi tashkilotining a'zosi bo'lgan. Qamoqqa olingan vaqtida aniq mashg'ulot yo'q edi. Aholi orasida doimiy ravishda isyonchilik va mag'lubiyatchilik ruhida targ'ibot olib borganlikda, Sovet ittifoqidagi ahvol to'g'risida bo'hton gaplar tarqatganlikda ayblanib, O'zSSR Ichki ishlar xal



INNOVATSIYA

O'Z-O'ZINI QUVVATLOVCHI TEXNOLOGIYA

Ekologiya najotkorasi sifatida qaralayotgan elektromobillar nafaqat zarari kamligi, balki qimmatligi bilan ham ajralib turadi. Elektromopedlar-chi, deysizmi?

Ular ham cho'ntakbop emas, shu bilan birga, ko'p masofaga chidamaydigan, tezligi qisman cheklangan, akkumulyatori ham uzoq muddat turib bera olmaydigan "nozikoyim".

Shu muammoni his qilgan Nodirbek Boltaboyev boshchiligidagi TATUning bir guruh ko'ngililarini yangi yechimlarni taklif qilmoqda. Xo'sh, Nodirbek Boltaboyev o'zi kim?

Yoshligidan elektronika sohasiga qiziqqan Nodirbek 2017-yilda radiotexnika, elektronika va aloqa yo'nalishi bo'yicha respublikada 1-o'rinni qo'lg'a kiritgan. 2021-yilda Xalqaro Elektronika nomzodligini oлган. Shu yilning o'zida elektronika yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan tanloving respublika bosqichida g'olib bo'lgan. 2022-yil "Start-up December" tanlovi hamda 2023-yil TechnoWays texnologik rivojlanish marafonida ham tengsiz deb topildi. Shu yili Olyi ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligida o'tkazilgan Technofest muhandislik texnologiyalar festivali g'olib. Eh-he, uning yutuqlarini sanasak maqolamiz keyingi sahifada ham tugamaydi.

Qahramoniizing shu darajaga yetguncha bosib o'tgan yo'l qiziq. Keling, yaxshisi, buni o'zidan eshitaylik!

ISTALGAN TURDAGI VELOSIPEDNI ELEKTRLASHTIRISH MUMKIN!

Elektrovelosipedni ikki xil – "Eco" va "Sport" rejimida yaratag'imiz:

"Eco" rejim uzoq masofaga yurish uchun mo'ljalangan. "Sport"da esa asosiy urg'u tezlikka qaratilgan. Ushbu velosiped ikkala rejimda ham boshqariladi. Bunda "Kruiz kontrol",

ya'ni bir xil tezlikda ushish funksiyasi ham bor. Kerakli tezlikka chiqqandan so'ng bir xilda harakatlanish mumkin. Xavfsizlik uchun uch xil – orqa, qo'l va to'g'ridan to'g'ri dvigatelni tormozlash rejimi yaratilgan.

Biz ushbu texnologiyani barcha tur-dagi velosipedlarga o'natib berishni boshlaganmiz.

IXTIRO QANDAY MUAMMOLARGA YECHIM BERADI?

Birinchidan, tirbandlikning oldi olinadi. Qolaversa, elektrovelosiped atrof-muhit uchun mutlaqo zararsiz. Bunda elektro energiyasidan foydalaniib, hozirda qo'shimcha parametrlar ustida ish olib bormoqdamiz. Uchinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham bu texnologiyani qo'llasak bo'ladi.

Ushbu texnologiya o'zini o'zi zaryadlashi bilan ajralib turadi. Ma'lumot uchun eslatib o'tamiz, hali bunday texnologiyadan Markazi Osiyoda foydalanimagan. Bundan tashqari, energiyani tejash va boshqa afzallik tomonlari ham talaygina.

ARZONLIGINI AYTING!

Ushbu texnologiyadan xohlagan joyda foydalananish mumkin. Yangi velosipedlarda elektrovelosiped poygalar uyuştrishish rejimiz bor. Buni qo'llashdan asosiy maqsad vaqtini, pulni, energiyani tejashdir. Hozirda elektromobil loyihamizni boshlaganmiz va bu juda katta mablag' tabab qilmoqda. Agarda ko'zlagan vaqtida rejamizga erishsak, O'zbekistondagi xohlagan turdagi avtomobilarni elektronlash mumkin bo'ladi. Ya'ni yangi elektromobil olishsha hojat qolmaydi, aksincha, eski rusumdagagi tekniikani elektromobilga aylantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Narx tomonidan qaraydigan bo'l-sak, bu yangi texnologiya elektromobilardan arzon bo'ladi va undagi analoglarning ham ustun jihatlari ancha. Bu texnologiya

ekologiya hamda qayta tiklanmaydigan manbalarimizni asrash uchun juda qo'l keladi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Elektrga ham kundan kunga ehtiyoj oshayotgan paytda bu qiyin jarayon emasmi? Bu xavotir qisman o'rinni. Biz quyosh panellaringin monokristalli turidan foydalanshiga qaror qilganimiz. Shu orqali boshqa panelarga nisbatan ko'proq energiyaga ega bo'lamiz! Elektrovelosipedimiz to'liq zaryadlangan holda "Eko" rejimida maksimum 40 km/s tezlik bilan 80–85 km masofani bosib o'tadi. "Sport" rejimida esa maksimum 70 km/s tezlik bilan 65–70 km masofa yuradi. Elektrovelosipedimizda li-ion akkumulyatoridan foydalilanigan bo'lib, kafolat muddati 3–4 yilni tashkil etadi.

G'OYA QANDAY REALIZATSİYA QILINDI?

Elektronika sohasiga 4-sinf paytimdan qiziqib kelaman. Turli xil yangi kashfiyotlar orqali ishtiyoqim yanada ortgan. 2020-yilda bu g'oyani o'yaganman. Lekin boshlash uchun menda mablag' bo'limgan. Keyin bu g'oyani ustozimga aytganman. Ular moddiy tomonдан ko'mak berishiga rozi bo'lganlar. Biroq bu urinish muvaffaqiyatsiz yakun topgan. 2021-yilda loyihami qayta boshlashga qaror qildim va bu jarayonda ham ancha qiyinchiliklar, yo'qotishlar, biz yiqqan sxemalarining kuyishi sabab oz bo'lsa-da, moliyaviy tanglik bilan loyihami arzon akkumulyatorlar orqali ishga tushirganmiz. Bu birinchi urinishimiz bo'lgan. Ushbu loyiha zarar bilan yopilgan. Shu paytda universitetga kirishim, o'z ustidma ishlashtirish kerakligini anglab yetganman. Olyi o'quv yurti talabasi bo'lgach, mablag' yig'ishni boshladim. Bu safar ham o'xshamasligi to'g'risida xavotirlarim yo'q emasdi. Xullas, 2023-yil 22-aprelda loyihamiga yana

qaytganman. Jarayonda ustozim bilan ko'plab qiyinchiliklarga duch keldik. Loyiha tayyor holatga kelganidan so'ng Technofest muhan-dislik texnologiyalari festivaliga olib chiqidik va tanlovda g'olib bo'dik. Yutuqqa berilgan mablag'ga loyihami to'liq tutugib, tayyor holatga olib keldik.

YANA QANDAY LOYIHALAR BOR?

Hozirgi kunda elektr energiyasini iqtisod qilish global muammolardan biri bo'layotgani sababli olingan quyosh energiyasini tejash ustida bir qator izlanishlar olib bormoqdamiz. Taqdim etilayotgan yangi loyihamiz orqali quyosh panelaridan oqib kelayotgan energiyaning sarf hisobi yuritiladi. Ushbu tartibda bu qurilma kundalik ob-havoga qarab qancha energiya sarf bo'lishi, qancha energiya oqib kirishi to'g'risidagi ma'lumotlarni foydaluvchiga ular-

shib boradi. Ushbu loyiha juda ham ko'p izlanishlar talab qiladi. Hozirda loyiha sinov tariqasida laboratoriya shihsatib kelinmoqda.

KELAJAKDAGI REJALAR

Hozirda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 3-bos-qichida tahsil olyapman. Kelgusida elektronika sohasi bo'yicha ilmiy taddiqot olib borib, o'zim tanlagan soha bo'yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlashga hissa qo'shishni niyat qilganiman. Chunki har qanday ixtiro zamirida yelkadosh va hamfirk mutaxassislar silsilasi bo'ladi. Yaqin yillarda esa bir qancha loyihamimni amaliyotga joriy etish, ular ustida tajribalar o'tkazish, chet el bilan hamkorlik, "exchange" dasturlarda qatnashib, yangi bilimlarni O'zbekiston sharoitida qo'llash asosiy maqsadlarimidan biridir.

Sohiba MULLAYEVA
yozib oldi.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Kambag'allikdan chiqish uchun tovuq, quyon, asalari boqingilar deyishganda ko'p qatori men ham miyig'imda kulib qo'ygandim. Ammo adashgan ekanman. Kechiringlar....



YETTI XAZINANING ASOSIYSI – MEHNAT

Hozir hovlida 10 ta tovuq bo'yapman. Har kuni xonaki tuxum bor. Oilamiz bilan maza qilib yeyapman. Ortgan tuxumdan inkubatorda jo'ja ochtirdim. Birinchi partiyada 30 dan ortiq jo'ja chiqdi. Ayni paytda ikkinchi bor ochish arafasida. Tovuqni bekorga yetti xazinaning biri deyishmagan ekani...

Bundan tashqari, 5 ta xikol va kaliforniya zotli quyon bo'yapman. Go'sht yo'nalishida. Bugun bittasi 10 ta tug'di. Ikkinchisi tug'ish arafasida. Bir yilda kamida 3-4 marta ko'payarkan. Bitta ona quyondan 40 ga yaqin bola degani bu. Bolasi uch oyda go'shta tayyor bo'ladi. Tirigining har bir donasini kamida 100 ming so'mdan sotib ham bo'ladi.

Asalariga ham qiziqib, to'rtta oila bo'yapman. Ona ari yaxshi tuxum qo'yyapti. Qiyomini berib bormoqdam. Yaqinda asal yig'ish boshlandi. Xudo xohlasa, 4 ta oiladan kamida 20 kilo asal olishni mo'ljalayapman. Tabiiy asal!

Dima QAYUM,
Facebook

TIHLIM

"SALFETNITSA" EMAS – "SOCHIQDON", "GRAFIN" EMAS – "TUNCHА"

Aziz mushtari, nutqimizdagi har jumlaning birida qo'llayotganimiz ajabiyo so'zlar sizni ham bezovta qilayotgan bo'lsa kerak. Ehtimol, ularning tilimizdagi muqobili bo'r-yo'qligi haqida o'ya ham tolqandirsiz. Biz ham shunday qilamiz: begona kalomlarga peshonamiz urilaverib, yo'zbekcha muqobilini topish, yo'sha ma'noni beradigan yangi so'z yasash kerakligini ko'p o'yaymiz.

Holbuki, bu istakni kichik bo'lsa-da amaliy harakatlarga ro'yogba chiqara oladi. Shu bois ona tilimiz xazinasini bittaga bo'lsa ham boyitish maqsadida ayrim muqobil va yasalgan so'zlarni taklit sifatida o'rtaq tashlamoqchimiz. Umid qilamizki, bu so'zlar o'tamizda qolib ketmaydi, iste'molga chiqadi.

Umumiy ovqatlanish maskanlarida asosan qog'oz sochiqlardan foydalananimiz. Har bir stol ustida kamida bittadan sochiqlar solingen match turadi. Odamlar uni ruschadan shundoqqina olingan "salfetnitsa" so'zi bilan atashadi. Vaholanki, mazkun buyumming o'zbekcha muqobilini yasash qiyin emas. Shunchaki, "sochiq" o'zagiga "-don" so'z yasovchi qo'shimchasi qo'shamiz, tamom. Ana sizga yangi so'z – sochiqdon! Axir tilimizda "-don" qo'shimchasi bilan yasalgan so'zlar talaygina: tuzdon, guldon, kuldon va hokazo.

Uy-ro'zg'or buyumlari sirasiga kiruvchi, dasturxonimizni bezab turadigan yana bir buyum bor. Suyuqlik (masalan, sharbat, suv va hokazo) solinadigan bu idishni ham negadir "grafin" deb ataymiz. Ammo uni yuqoridagidek so'z yasash orqali o'zbekchalashitmoqchi emasmi. Chunki "grafin" faqat bir turdag'i ichimlik uchun ishlatalmaydi. Demak, "sharbatdon" yoki "suvdon" shaklida so'z yasash o'zini to'la oqlamaydi. Qolaversa, "-don"



ichimlik uchun ishlatalmaydi. Demak, "sharbatdon" yoki "suvdon" shaklida so'z yasash o'zini to'la oqlamaydi. Qolaversa, "-don"

qo'shimchasi ichimlik ma'nosini anglatuvchi o'zakka qo'shilib so'z yasaganini deyarli kuzatmaganniz (Nofao'l qo'llaniladigan "suvdon" leksemasi istisno bo'lishi mumkin).

Hozirgi o'zbek tili lug'atini boyitish uchun ba'zan arxaik so'zlarga qayta jon kiritishga to'g'ri keladi. O'tgan asrlarda "tuncha" deb atladiqigan va grafin bilan ayni vazifani bajaradigan idish bo'lgan. O'zbekiston amaliy san'at muzeiyiga yo'lingiz tushsa, tunchaning shakl-shamoyilini o'z ko'zingiz bilan ko'rishingiz va boshqa bir talay uy-ro'zg'or buyumlarining o'zbekcha nomlarini bilib olishingiz mumkin.

Aytishlaricha, Xorazm viloyatidagi ba'za shevalarda "tuncha" hamon so'zlashuvda qo'llaniladi. Biroq mazkur so'z hozirda asrlar avvalgi ma'nosidan biroz o'zgarganini ham ta'kidlash lozim.

Shohrux USMONOV



Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Mualif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar mulligiga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omavviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19739

Shundan:

Kirill yozuvida – 8 020

Lotin yozuvida – 11 719

Media kuzatuvchilar – 43 815


Buyurtma: G – 540.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoij ko'chasi, 69-uy

Telefonlar: